Xar kanday muvozanatda turgan sistemada temperaturaning ortishi endotermik reaktsiya tezligi ortishiga, temperaturaning pasayishi - ekzotermik reaktsiya tezligi ortishiga olib keladi.

Kurib chikilgan ximiyaviy muvozanat siljishiga uch faktor ta'siridan umumiy xulosa: agar muvozanatda turgan sistemaga tashkaridan ta'sir etilsa (moddalar kontsentratsiyasi, bosimi, temperatura uzgartirilsa) sistema uz muvozanatini shu ta'sir kamayadigan reaktsiya borishi tomoniga siljitadi. Buni ximiyaviy muvozanat siljishi tugrisida Le-Shatele printsipi (yoki koidasi) deyiladi. Bu koida xar kanday ximiyaviy muvozanatda turgan reaktsiya (texnologik jarayon) uchun kullanilib, jarayonlar borishini boshkarishning asosini tashkil etadi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Kaytar va kaytmas reaktsiyalar deb kanday reaktsiyalarga aytildi.
2. Ximiyaviy muvozanat nima?
3. Muvozanat doimiysi nima va uning fizik ma'nosi nimada?
4. Le-Shatele printsipining moxiyatini tushuntiring.
5. Muvozanatga temperatura ta'sirini tushunish uchun nimaga e'tibor berish kerak?

6. Kanday sistemalarda muvozanatning siljishi bosimga boglik emas?

7. Muvozanatning siljishiga:

a) dastlabki moddalar mikdorining ortishi kanday ta'sir etadi?

b) dastlabki moddalar mikdorining kamayishi kanday ta'sir etadi?

v) maxsulotlar mikdorining ortishi kanday ta'sir etadi?

g) maxsulotlar mikdorining kamayishi kanday ta'sir etadi?

### **Tayanch iboralar:**

Mavzuda urganiladigan asosiy tayanch iboralar: kaytar va kaytmas reaktsiyalar, ximiyaviy muvozanat, muvozanat doimiysi, muvozanatning siljishi, Le-Shatele printsipi.

## **VII MAVZU.**

### **DISPERS SISTEMALAR. ERITMALAR.**

#### **Reja:**

1. Dispers sistemalar va ularning turlari.
2. Chin eritmalar va ularning xosil bulishi.
3. Moddalarning eruvchanligi.
4. Eritmalar kontsentratsiyasi va ularni ifodalash usullari.
5. Eritmalardagi osmos xodisasi.
6. Eritmalarning bug bosimi. Raul konunlari.

#### **Adabiyotlar:**

1. X. R. Raximov "Anorganik ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1981., 108-119 betlar.
2. N. S. Axmetov "Neorganicheskaya ximiya", Moskva "Vo'sshaya shkola", 1969 g., 145-160 betlar.
3. R. Ubaydullaeva, Sh.Abdullaev "Umumiy kimyodan nazariy va amaliy mashgulotlar" Toshkent "Uzbekiston" 1997 y., 32-100 betlar.
4. T.M. Mirkomilov, X.X.Muxitdinov "Umumiy ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1987 y., 78-85 betlar.
5. K. Axmerov va boshkalar."Umumiy va anorganik ximiya" Toshkent "Ukituvchi", 1988 y., 135-140 betlar.
6. X.R. Raximov va boshkalar."Anorganik ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1980 y., 74-100 va 122-124 betlar.
7. N.X. Maksudov "Umumiy ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1979 y., 44-52 betlar.


Kupchilik moddalar bir-birida (gaz - suyuklik, suyuklik-suyuklik, kattik modda - gaz, kattik modda - suyuklik) tarkaladi. Tarkalish natijasida geterogen yoki gomogen sistemalar xosil buladi.

Bir modda ichida (muxitida) ikkinchi moddaning juda kichik zarrachalar xolida tarkalishi (disperslanishi) dan xosil bulgan mikrogeterogen sistemalar *dispers sistemalar* deyiladi. Xar kanday dispers sistema dispers muxitdan va unda tarkalgan modda zarrachalari - dispers fazadan iborat buladi. Dispers sistemalar bir-biridan dispers muxit va dispers fazaning agregat xolati, zarrachalarning ulchami (katta-kichikligi), ya'ni disperslik darajasi bilan fark kiladi.

Disperslik darajasiga kura: dagal dispers sistemalar ( $r \approx 100 - 10000 \text{ nm} \longleftrightarrow q \approx 10 \text{ mkm}$ ) mavjud. Bunday sistemalar suspenziyalar (dispers muxit - suyulik, dispers faza - kattik modda zarrachalari) - loyka suv; unning suvdagi aralashmasi, emulsiyalar (dispers faza va dispers muxit - suyuklik) - bueklar, sut kabi aralashmalar kiradi. Bu dispers sistemalar noturgun sistemalar bulib vakt utishi bilan buziladi. Masalan, loyka suv ma'lum vakt tinch tursa tiniydi, ya'ni tuprok zarrachalari chukadi. Bu sistemalarga chang (kattik modda - dispers faza, xavo - dispers muxit); tutun - dispers faza va dispers muxit gazsimon moddalar; kupiklar - (dispers muxit - suyulik, dispers faza - gaz); tuman (dispers faza - suyulik -(suv), dispers muxit - xavo) xam kiradi.

Nozik dispers sistemalar yoki kolloid eritmalar. ( $r \approx 1-100 \text{ nm}$ , yoki  $0,1 - 10,0 \text{ mkm}$ ) kolloid eritmalarini boshkacha "Zollar" xam deyiladi. Kolloid eritmalar dagal dispers sistemalarga nisbatan barkarordir. Ularga kogoz kleysi ( $\text{K}_2\text{SiO}_3$  yoki  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$  ning suvli aralashmasi - "suyuk shisha"),  $\text{AgI}$ ,  $\text{Fe(OH)}_3$ ,  $\text{As}_2\text{S}_3$  - zollari misol buladi. Kolloid eritmadagi zarrachalar murakkab tarkibli bulib bu zarrachalar "**MITsELLA**" deyiladi.

KI va  $\text{AgNO}_3$  tuzlari eritmalarini aralashuvidan xosil bulgan  $\text{AgI}$  - zolini kuyidagicha tasavvur etish mumkin.



Mitsellaning zaryadiga kura zollarni "gidrofil zol" (musbat kolloid) ga va "gidrofob zol" (manfiy kolloid) ga bulinadi. Bularga misollar sifatida  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  ning

gidrofil zoli -  $\{[xFe_2O_3]^yH_2O zFe^{3Q} Cl^-\}$  va  $As_2S_3$  ning gidrofob zoli  $\{[xAs_2S_3]^zHS^-zH^Q\}$  ni kursatish mumkin.

Kupchilik yukori molekulyar birikmalarining eritmalarida ular zarrachalarining ulchamlari katta bulganligi uchun bu moddalarning eritmalarini xam kolloid eritmalarga kiritiladi.

Umuman, kolloid eritmalarini olinishi, xossalari, ishlatilishi urganuvchi ximiya fanining bulimi mavjud bulib uni "kolloid ximiya" deyiladi va maxsus urganiladi.

Uta nozik dispers sistemalar. Bu sistemalarda r zarracha  $< 10^{-8}$  sm bulib, modda ion yoki molekulalar xolida dispers muxitda tarkalgan buladi. Bu sistemalardagi zarrachalarni oddiy kuz bilan kurib bulmaydi. Uta nozik dispers sistemalarini chin (xakikiy) eritmalar xam deb aytildi. Chin eritmalarini aloxida urganib chikamiz.

### **Chin eritmalar.**

Kupchilik ximiyaviy uzgarishlar, shu jumladan texnologik jarayonlar eritmalarida kechadi. Xomashe va maxsulotlar sifatini nazorat kilish, ximiyaviy jarayonlar mexanizmini tulik urganish, moddalarni sintez kilish, ularning xossa va tuzilishlarini aniklash uchun eng kup kullaniladigan sistemalar - eritmalaridir.

Eritma - ikki yoki undan ortikcha komponent (tarkibiy kism) dan iborat bulgan gomogen sistemadir.

Eritmalar moddalarning agregat xolatiga kura kattik, suyuk, gazsimon xolatlarda buladi. Kattik eritmalar - bular turli tarkibga ega bulgan metallarning kotishmalari (pulat, chuyan, dyuralyuminiy, bronza, latun) va shishalardir.

Gazsimon eritmalarga xavo (azot, kislород va boshka gazlardan iborat) va boshka gazlarning aralashmalari kiradi.

Kattik va gazsimon eritmalarida kaysi komponentning mikdori kup bulsa, shu komponent erituvchi xisoblanadi. Masalan: Chuyan - uglerod (4%) ning temir (96%) dagi eritmasi bulsa, xavo - azotdagi (78%) kislород (21%) ning eritmasi buladi.

Eng kup urganiladigan va kup uchraydigan eritmalar suyuk eritmalardir. Suyuk eritmalar - asoslar, kislotalar, tuzlarning va organik moddalarning suv yoki boshka suyuk moddalarda erishidan xosil bulgan sistemalardir. Shu sababli eritmalar katoriga kupchilik suyukliklar (suv-spir, spir-efir, benzol-efir, atseton-suv, atseton-spir, benzol-benzin va xokazo) ning uzaro aralashmalarini kiritish mumkin. Suyuk eritmalarda eritma xosil bulish jarayonida agregat xolatini uzgartirmaydigan komponent erituvchi deyiladi. Masalan: suvda osh tuzi eriganda (mikdoridan kat'iy nazar) osh tuzi kristallari suv ta'sirida kristall xolatini yukotadi, suv esa suyuk xolicha kolaveradi. Shuning uchun bunday eritmalarining barchasida suv erituvchi buladi.

Agar suyukliklarning uzaro aralashuvidan xosil bulgan eritmalar bulsa, mikdori kup bulgan suyuklik erituvchi xisoblanadi.

### **Eritmalarning xosil bulishi.**

Eritmalarning xosil bulishini fizikaviy va ximiyaviy (gidratlar) nazariyalari kuyidagicha tushuntiradi.

Eritma erituvchilarda turli modda molekulalarini tarkalib ketishi, ya'ni erishi natijasida xosil buladi. Kattik moddalar erishida uning sirtidagi molekulalar erituvchi molekulalari ta'sirida sirtdan "uzilib" eritmaga utadi. Diffuziya xodisasi va molekulalalaro ta'sir tufayli molekulalar eritma "ichiga" singib ketadi. Shu tarika kristall panjarani tashkil etgan barcha molekulalar (eritma erigan moddaga tuyinmaguncha) eritmaga utadi va eritma xosil buladi. Bu jarayon natijasida bir jinsli sistema xosil buladi va bunda erituvchining tabiatи va kattik moddaning tuzilishi, ximiyaviy xossasi asosiy rolni uynaydi.

Suyuk moddalarning eritmalarini xosil bulishida erituvchi va eriydigan moddalarning molekulalari uzaro aralashib (diffuziya xodisasi tufayli) ketadi. Bu jarayonda moddalarning dipol momenti, kutblanuvchanligi kabi xususiyatlari asosiy urinni egallaydi. Shu sababli kutbli moddalar kutbli eruvchida, kutbsiz moddalar kutbsiz erituvchilarda yaxshi eriydi.

Eritmalarning bir jinsli bulishi, erish jarayonida issiklikning yutilishi yoki ajralib chikishi eritmalarini ximiyaviy moddalar deb aytishga asos buladi.

Lekin, eritmalar tarkibining xar xilligi va uzgaruvchanligi ularni mexanik aralashmalarga taallukli degan xulosaga olib keladi. Shu sababli eritmalarini ximiyaviy moddalar bilan mexanik aralashmalar urtasidagi "oralik sistema" deb karash kerak.

Yukoridagi xollarda va xar kanday eritmalarining xosil bulishida erituvchi molekulalari bilan eriydigan modda molekulalari urtasida uzaro ximiyaviy reaksiya boradi. Bu reaksiyaning maxsuloti sifatida erigan modda molekulalarining solvatlari xosil buladi. Agar A-moddasi biror eruvchi (lotincha "solven") da erisa, eritmada xosil bulgan yangi modda - solvat  $[A^*nsolv]$  kurinishida eziladi. Erituvchi suv bulsa xosil bulgan moddalar ( $A^*nH_2O$ ) gidratlar deyiladi. Eritmalar xosil bulishining solvatlar (gidratlar) nazariyasini D.I.Mendeleev yaratgan.

Suvli eritmardan ajratib olingan kupchilik kristall modddalar tarkibida bir necha molekula suv buladi:  $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ ;  $Na_2CO_3 \cdot 7H_2O$ ;  $Na_2SO_4 \cdot 7H_2O$ ;  $CiSO_4 \cdot 5H_2O$ ;  $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ ;  $CaCl_2 \cdot 4H_2O$ ;  $MgCl_2 \cdot 12H_2O$ ;  $(NH_4)_2Fe(SO_4)_2 \cdot 12H_2O$  va xokazo.

Demak, gidratlar (solvatlar) ning tarkibi erigan modda tarkibiga, tabiatiga, erituvchining mikdoriga va tabiatiga boglik buladi.

Barcha ximiyaviy jarayonlar singari moddalarning erishi xam sistemaning entalpiyasi ( $\Delta H$ ), entropiyasi ( $\Delta S$ ) va izobor-izotermik potentsiali  $\Delta G$  uzgarishi bilan xarakterlanadi. Termodinamika nuktai nazaridan biror modda boshka ikkinchi moddada eriganda  $\Delta G \neq \Delta H - T\Delta S < 0$  shart bajarilishi kerak.

Bundan kurinib turibdiki, doimiy temperaturada  $\Delta G$  ning kiymati erish jarayonida zarrachalarning tartibsizligi ( $\Delta S$ ) - entropiya va entalpiya ( $\Delta H$ ) uzgarishidan iborat.

Bu ikkala kattalikning erish jarayoniga ta'siri kuyidagicha tushuntiriladi.

Suyuklik yoki kattik modda eriganda "tartibli" xolatdan tartibsiz xolatga utadi, ya'ni eruvchida tarkalib ketadi. Buning natijasida sistemaning entropiyasi

ortadi ( $\Delta S > 0$ ), bu erish jarayonini uz-uzidan borishiga va  $\Delta G > 0$  bulishida entropiya faktori xissasini ortishiga sabab buladi. Shuning uchun xam aksariyat xollarda kattik va suyuk moddalarning erishi temperatura ortishi bilan ortadi.

Gazsimon moddalarning suyukliklarda erishida zarrachalar (gaz xolatdagi) tartibsiz xolatdan tartibi yukori bulgan (suyuklik) xolatga utadi va  $\Delta S < 0$ , ya’ni bu jarayon entropiyaning kamayishiga olib keladi. Bunda  $\Delta G$ -ning kiymatiga entropiya faktorining kushadigan xissasi kam buladi. Shu sabali gazsimon moddalarning eruvchanligi temperatura ortishi bilan kamayib, temperatura pasayishi bilan ortadi.

Eritma xosil bulish jarayonida sistemaning entalpiyasi yoki ortishi  $\Delta H > 0$ , yoki kamayishi  $\Delta H < 0$  mumkin. Agar  $\Delta H_q \Delta U Q_p \Delta V$  ekanligini e’tiborga olsak va erish jarayonida xajm uzgarmaydi ( $\Delta V = 0$ ) deb kabul kilsak, (sistema tashki muxitga nisbatan ish bajarmaydi  $A_q p \Delta V q O$ ) u xolda erish paytida entalpiya uzgarishi fakatgina sistemaning ichki energiyasi uzgarishidan  $\Delta H_q \Delta U$  iborat buladi. Boshkacharok aytganda,  $\Delta H$  (erish) asosan moddaning tuzilishi, kristall panjarasi buzilishiga sarflangan energiya ( $\Delta H$  tuzilish) bilan yangi xosil bulgan moddalarning (solvatlanish gidratlanish) xosil bulish energiya ( $\Delta H_{solv.}$ ) lari farki  $\Delta H_{erish} = \Delta H_{tuzilish} - \Delta H_{solv.}$  dan iborat buladi.

Gazsimon moddalar uchun  $\Delta H_q O$  bulgani, uchun  $\Delta H_{erish}$  q- $\Delta H_{solv.}$  buladi, ya’ni gazlarning suyukliklarda erishida gaz molekulalari bilan erituvchi molekulalari urtasidagi uzaro ta’sir energiyasi asosiy faktor xisoblanadi va shu sababli doimo gazlarning erishi ( $\Delta H_{erish} < 0$ ) ekzotermik jarayondir.

Shuningdek shakar, glitserin, spirt, NaOH, KOH,  $Na_2SO_4$ , sulfat, xlorid, nitrat kislotalarning erishi xam ekzotermik jarayondir. Chunki, molekulyar kristallarning tuzilish energiyasi va suyuk moddalardagi molekulalararo vander-vaals kuchlarining energiyasi bu moddalarning solvatlanish (gidratlanish) energiyasidan kichik, ya’ni  $\Delta H_{tuzilish} < \Delta H_{gidratlanish}$ .

Ionli kristallardan iborat moddalar ( $NaNO_3$ ,  $NH_4Cl$ , KCNS, NaCl,  $KNO_3$ , KCl,  $NH_4NO_3$ ,  $CiSO_4$  va boshkalar) da molekulalar orasidagi boglanish energiyasi juda katta kiymatga ega. Shuning uchun bu moddalar eriganda  $\Delta H_{tuzilish} > \Delta H_{solv.}$

bulgani tufayli entalpiya uzgarishi  $\Delta H > 0$  buladi. Bu moddalarning erishi endotermik reaktsiyalardir, boshkacha aytganda bu moddalarning erishi temperatura ortishi bilan ortib boradi. Moddalar eriganda issiklikning yutilishidan foydalanib ba'zi bir sovutgich aralashmalar xosil kilinadi. Agar 60 g.  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  ni 100 gr.  $\text{H}_2\text{O}$  da eritilsa, sistemaning xarorati  $30^\circ\text{C}$  ga pasayadi, agar 88 g.  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  ni 100 g. suvda eritilsa  $36^\circ\text{S}$  ga temperaturani pasaytirish mumkin.

Ba'zi moddalarda  $\Delta H_{\text{tuzilish}} \neq \Delta N_{\text{solv.}}$  buladi. Bular molekulyar tuzilishli kutblanmagan moddalar bulib, ularning erishi entalpiya uzgarishisiz ( $\Delta N_{\text{erish}} = 0$ ) ruy beradi. Bu erish jarayonida  $\Delta G < 0$  bulishi uchun asosan, entropianing uzgarishi ( $\Delta S > 0$ ) xal kiluvchi rol uynaydi. Bunga misol sifatida  $\text{I}_2$  kristallarning  $\text{CCl}_4$  da erishini keltirish mumkin. Bu eritma xosil bulishida erituvchi va erigan modda molekulalari urtasida yangi modda (solvat) xosil bulmaydi va bunday eritmalar kupinchalari oddiy ikkita moddaning aralashmasiga, ya'ni ideal eritmalarga yakin buladi.

### **Moddalarning eruvchanligi.**

Xar kanday ximyaviy toza modda boshka moddada eriydi. Moddalarning eruvchanligi shu moddaning va erituvchining tabiatiga, temperaturaga boglik.

Moddalarning eruvchanligi deb, ayni temperaturada 100 g. erituvchida erigan moddaning gramm mikdoriga aytildi. Odatda buni moddalarning "eruvchanlik koeffitsienti" deyiladi.

Kengrok ma'noda moddalarning eruvchanligi sifatida ayni sharoitda tuyingan eritmaning kontsentratsiyasini kabul kilsa xam buladi. Shunga muvofik, eruvchanlik mikdoran erigan modda massasining tuyingan eritma massasiga nisbatini ifodalovchi foiz kiymatga tengdir. Ba'zan 1 litr tuyingan eritmadagi erigan moddaning "mol" lar soni xam moddaning eruvchanligi deyiladi.

Kupchilik xollarda erituvchi sifatida suv ishlatalgani uchun moddalarning suvda eruvchanligi kuyidagicha xarakterlanadi: agar 100 g suvda 10 g. va undan kup mikdordagi modda erisa - yaxshi eruvchan; agar 10 g. dan 0,01 gacha erisa -

kam (yomon) eriydigan; agar 0,01 g. dan kam erisa - amalda erimaydigan modda deyiladi.

Moddalarning eruvchanligi ularning tabiatiga boglik. Kutbli moddalar kutbli erituvchida (spirit - suvda, ammiak - suvda, vodorod xlorid - suvda) yaxshi eriydi: kutbsiz moddalar kutbsiz erituvchilarda (iod - xloroformda, eg - benzolda, naftalin - benzolda) yaxshi eriydi.

Temperaturaning ortishi bilan moddalarning eruvchanligi xam ortib boradi. Buning sababi moddalarning erish issikligi mavzusida batafsil baen etildi. Moddalar eruvchanligini temperaturaga boglikligi eruvchanlik grafigida kursatiladi. Ushbu grafikdan foydalanib xoxlagan temperaturada ( $100^{\circ}\text{S}$  gacha) turli moddalarning 100 g. erituvchida necha gramm erishini bilib olish mumkin.

Kattik moddalarning eruvchanligi bosimga boglik bulmaydi.

Suyuk moddalar syuliklarda eriganda turlicha (cheksiz yoki cheklanmagan mikdorda) eriydi yoki aralashadi. Masalan, spirit suvda cheklanmagan mikdorda eriydi, boshkacha aytganda spirit va suv xoxlagan mikdoriy nisbatlarda aralashadi.

Dietil efiri ( $\text{C}_2\text{H}_5 - \text{O} - \text{C}_2\text{H}_5$ ) xona temperaturasida suvda cheklanmagan mikdorda eriydi, ya'ni suv va efir aralashmasi ikki kavatdan iborat buladi. Yukori katlam - suvning efirdagi tuyingan eritmasi bulsa, pastki katlam efirning suvdagi tuyingan eritmasidir. Temperaturaning ortishi bu moddalarni bir-biridan eruvchanligini oshiradi va ma'lum temperaturada ikkala modda uzaro xoxlagan nisbatda aralashadi.

Uzaro cheklangan mikdorda eruvchi suyukliklarning cheksiz eruvchanlik xolatiga utadigan temperatura suyukliklarning kritik erish temperaturasi deyiladi. Bunga misol: fenol ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$ )  $66,4^{\circ}\text{S}$  da suvda cheklangan mikdorda eriydi,  $66,4^{\circ}\text{S}$  dan boshlab esa, fenol cheklanmagan mikdorda suvda, suv esa fenolda eriydi (aralashadi). Shuning uchun "fenol-suv" sistemasi uchun  $66,4^{\circ}\text{S}$  kritik erish temperaturasi deyiladi.

Ma'lumki ikkita uzaro aralashmaydigan suyuklik aralashmasiga uchinchi - bu ikkala moddada uz eruvchanlik koeffitsientiga proportsional xolda eriydigan modda kushilsa, bu modda ikkala suyuklikda turlicha eriydi.

Uzaro aralashmaydigan moddalar aralashmasida erigan (tarkalgan) moddaning kontsentratsiyalari nisbati ayni temperaturada doimiy son bulib, erigan moddaning umumiy mikdoriga boglik emas. Buni "tarkalish konuni" deyiladi. Agar S - erigan moddaning birinchi erituvchidagi kontsentratsiyasi, S - erigan moddaning ikkinchi erituvchidagi kontsentratsiyasi bulsa, uning tarkalish koeffitsienti K kuyidagicha ifodalanadi:

$$K = \frac{C_{\text{Organik}}}{C_{\text{Cyb}}}$$

Iodning suvgaga nisbatan xloroformda tarkalish koeffitsienti Kq130 ga teng, ya'ni xloroformda erigan iod mikdori suvdagiga nisbatan 130 marta kup.

"Tarkalish konuni"ga asoslanib moddalarni bir-biridan ajratish, mikdorini oshirish - kontsentrlash va ajratib olish (ekstraktsiyalash) mumkin.

Gazlar xam suyukliklarda eriydi. Bu jarayon ekzotermik jarayon. Gazlarning suyukliklarda erishi Genri konuniga buysunadi.

Doimiy temperaturada uzgarmas xajmdagi suyuklikda erigan gaz mikdori shu gazning partsial bosimiga tugri proportsional.

$$C \propto K * P$$

bunda S - gazning tuyingan eritmadiagi mikdori, P-gazning partsial bosimi va K - proportsionallik koeffitsienti yoki Genri doimiysi.

Agar suyulikda bir necha gazlar aralashmasi erisa, xar bir gazning eruvchanligi gazlarning umumiy bosimiga emas, balki shu gazning partsial bosimigagina boglik buladi.

Gazlarning eruvchanligi "mlG'100 ml" birlikda ifodalanadi.

Ba'zi gazlarning suvda eruvchanligi "mlG'100 ml H<sub>2</sub>O"

<i>GAZ</i>	<i>Eruvchanligi</i>	<i>Gaz</i>	<i>Eruvchanligi</i>
	<i>0°</i>	<i>20°S</i>	<i>20°S</i>
<b>Vodorod</b>	2,15	1,8	SO <sub>2</sub>
<b>Kislород</b>	4,9	3,1	Cl <sub>2</sub>

<b>Azot</b>	2,35	1,5	N <sub>2</sub>	5,5	3,3
<b>Ammiak</b>	--	700	NH <sub>3</sub>	--	--

Moddalarning eruvchanlik koeffitsientiga kura tuyinmagan, tuingan va uta tuingan eritmalaqaga ajratiladi.

*Tuyinmagan eritma.* Ayni temperaturada ma'lum mikdor erituvchida erish koeffitsientidan kam mikdordagi modda erishidan xosil bulgan eritma - tuyinmagan eritma deyiladi. Agar eruvchanlik grafigiga e'tibor berilsa, 20<sup>0</sup>S da 100 ga suvda 36 g. NaCl eriydi. Agar shu sharoitda 15 g. NaCl erisa, tuyinmagan eritma xosil buladi. Bu eritmada yana kushimcha 21 g. modda eritib tuingan eritma xosil kilinadi.

*Tuingan eritma* - ayni temperaturada ma'lum mikdordagi erituvchida erish koeffitsientiga teng yoki undan kuprok mikdordagi modda erishidan xosil bulgan eritmadir. Tuingan eritmada doimo erigan modda mikdori kristall (erimay kolgan) modda mikdori bilan muvozanatda buladi, ya'ni eritmaga utaetgan zarrachalar soni eritmadan kristalga utaetgan molekulalar soniga teng buladi.

*Uta tuingan eritma.* Agar tuingan eritmada erigan modda ustiga yana shu moddadan kushib temperatura oshirilib boraverilsa ortikcha kushilgan modda erib ketadi. Yana modda kushilib temperatura oshirilsa modda yana erib ketadi va natijada uta tuingan eritma xosil buladi. Uta tuingan eritmalar azaldan (T.E.Lovits, 1794 y) ma'lum bulib, ular oddiy sharoitda noturgun sistemadir.

Shu tufayli bu eritmaga ozgina mexanik ta'sir (eritma turgan idishga oddiy zarb) berilsa yoki ozgina kattik modda zarrachasi kushilsa, temperatura pasaytirilsa eritmani buzilishiga - erigan moddaning ortikcha mikdori kayta kristallanib ajralib chikadi. Shu usul (kayta kristallah) bilan kupchilik moddalar tozalanadi. Bunda kupincha kristallogidratlar olinadi. Masalan: Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub>\*5H<sub>2</sub>O (natriy tiosulfat kristallogidrati), Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>\*10H<sub>2</sub>O (Glauber tuzi), Na<sub>2</sub>B<sub>4</sub>O<sub>7</sub>\*10H<sub>2</sub>O (bura), SiSO<sub>4</sub>\*5H<sub>2</sub>O (mis kupoysi).

### **Eritmalarning kontsentratsiyalarini ifodalash usullari.**

Eritmaning biror xajmi yoki massasi birligida erigan modda mikdorini kursatuvchi kattalik eritmaning kontsentratsiyasi deyiladi va S - xarfi bilan belgilanadi.

Eritma kontsetrasiyasini ifodalashning kuyidagi turlari mavjud:

- a) erigan moddaning massa ulushi ( $\omega$ ) yoki foiz kontsentrsiya (S %)
- b) molyar kontsentrsiya (Sm, molG<sup>-1</sup>)
- v) normal yoki ekvivalent kontsentratsiyasi (Sn; N, g-ekvG<sup>-1</sup>)
- g) Titr (T, gG<sup>-1</sup>ml)
- d) molyal kontsentratsiyasi (m, molG<sup>-1</sup>1000 g)
- e) molyar kism (N, mol)

Xar bir kontsentratsiyasi turini aloxida karab chikamiz.

### Foiz kontsentrsiya.

Xar kanday eritmaning 100 grammida erigan moddaning gramm mikdorini kursatuvchi kiymat foiz kontsentrsiya deyiladi.

Foiz kontsentrsiya kuyidagi formula erdamida xisoblanadi:

$$C\% = \frac{m_{модда}}{m_{эримма}} \cdot 100\% = \frac{m_{модда} \cdot 100\%}{m_{эримма} + m_{модда}}$$

Kupchilik xollarda bu kontsenratsiyani "massa ulushi" xolida:

$$W = \frac{m_{модда}}{m_{эримма}} \cdot 100\% = \frac{m_{модда} \cdot 100\%}{m_{эримма} + m_{модда}}$$

ifodalanadi. Uning ma'nosи eritma umumiy ogirligining kanchasi erigan modda xissasiga tugri kilishini bildiradi.

Ma'lumki, eritmalar suyuk xolda bulgani uchun uning mikdori xajm birligida (V, ml, sm<sup>3</sup>, litr) ifodalanadi. Bunday xollarda eritma massasi bilan xajmi urtasidagi boglanish mqV\*d xolida eziladi. Bu erda d – 1 eritmaning zichligi, ya'ni 1 ml (sm<sup>3</sup>) xajmdagi eritmaning ogirligi deyiladi va gG<sup>-1</sup>ml, gG<sup>-1</sup>sm<sup>3</sup>, kgG<sup>-1</sup>m<sup>3</sup> birlikda ulchanadi. Masalan, 98% li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasining zichligi 1,84 gG<sup>-1</sup>sm<sup>3</sup> ga teng deganda shu eritmaning 1 sm<sup>3</sup> yoki 1 millilitri 1,84 g. massaga ega, deb tushunish kerak.

Yukoridagilarni e'tiborga olsak, eritmaning foiz kontsentratsiyasi:

$$C\% = \frac{m_{модда}}{V \cdot d} \cdot 100 \text{ yoki } \% = \frac{m_{модда}}{V \cdot D} \cdot 100$$

Faraz kilaylik, osh tuzi eritmasining kontsentratsiyasi 15% (0,15) li bulsin. Buning ma'nosи, osh tuzi eritmasining 100 gramida 15 g. NaCl moddasi 85 g. H<sub>2</sub>O da erigan. Boshkacha aytganda, shu eritmaning 1 ogirlilik kismi (g.) da 0,15 ogirlilik kism (g.) NaCl va 0,85 ogirlilik kism (g.) H<sub>2</sub>O dan iborat.

### Molyar kontsentratsiya.

Eritmalarning molyar, normal kontsentratsiyalari va titr xajmiy kontsentratsiyalar katoriga kirib, eritmaning xajmi birligida erigan modda mikdorini ifodalaydi.

1 litr (1000 ml) eritmada erigan moddaning "mol" lar mikdorini kursatuvchi kiymat molyar kontsentratsiya deyiladi. Uni xisoblash formulasи:

$$C = \frac{n_{(моль)}}{V_{(літр)}} \text{ buladi.}$$

Bu erda V - eritmaning xajmi, n - erigan moddaning "mol" lar soni. Agar n q мG'M va xajmni millilitrda ifodallasak, u xolda:

$$C = \frac{m_{модда} \cdot 100\%}{M \cdot V_{(мл)}} \text{ buladi.}$$

Bu erda m modda - erigan modda massasi, gr, M erigan moddaning molekulyar massasi, gG'mol.

Agar, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning 0,5 molG'l (molyar) kontsentratsiyali eritmasi deyilsa, xar bir litr eritmada 0,5 mol ( yoki 0,5 98 q 49 gramm) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> erigan, degan ma'noni tushunish kerak.

### Normal (ekvivalent) kontsentratsiya

Xar kanday eritmaning 1 litri (1000 millilitr) da erigan moddaning gramm - ekvivalent soni (ekvivalent mikdori) ni bildiruvchi kiymatga normal kontsentratsiya deyiladi. Normal kontsentratsiyani xisoblash formulalari:

$$C_H = \frac{n_{(ep.\mathcal{E}K\mathcal{B})}}{V} \text{ yoki } n_{(ep.\mathcal{E}K\mathcal{B})} = \frac{M_{mo\partial\partial a}}{\mathfrak{Z}_{mo\partial\partial a}}$$

V q 1000 ml ekanligini e'tiborga olsak:

$$C_H = \frac{m_{mo\partial\partial a} \cdot 1000}{\mathfrak{Z}_{mo\partial\partial a} \cdot V(\mathcal{M}\mathcal{L})} \text{ (n) (g.ekvG'l) buladi.}$$

Ushbu kontsentratsiyani xisoblash uchun "ximianing asosiy konunlari" mavzusidagi murakkab moddalarning ekvivalentini xisoblash formulalarini bilish shart.

Agar, NaOH ning 0,25 n li eritmasi deyilsa, shu eritmaning xar 1 litrida 0,25 g.ekv (yoki 0,25\*40 q 10 g.) NaOH erigan, degan ma'noni anglash lozim.

Molyar va normal kontsenratsiyalarning formulalaridan kurinib turibdiki, eritmaning kontsentratsiyalari eritma xajmiga teskari proportionaldir, ya'ni anik kontsentratsiyali eritmaning xajmi avvalgisiga nisbatan necha marta ortsa, eritma kontsentratsiyasi shuncha kamayadi.

Aksariyat xollarda molyar va normal kontsentratsiyalar foiz kontsentratsiya bilan almashtirilishi yoki aksincha masalalarni xal etishga turgi keladi. Shunday xollarda kuyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$C_M = \frac{C\% \cdot V \cdot d \cdot 1000}{100 \cdot V \cdot M} = \frac{C\% \cdot d \cdot 10}{M}; \quad C\% = \frac{C_M \cdot M}{d \cdot 10}$$

$$C_H = \frac{C\% \cdot V \cdot d \cdot 1000}{100 \cdot V \cdot \mathfrak{Z}} = \frac{C\% \cdot d \cdot 10}{\mathfrak{Z}}; \quad C\% = \frac{C_H \cdot \mathfrak{Z}}{d \cdot 10}$$

### **Eritmaning titri.**

Eritmaning 1 millilitr ( $\text{sm}^3$ ) da erigan moddaning gramm mikdorini kursatuvchi kiymatga eritmaning titri deyiladi.

Yukoridagi koidaga kura, xlorid kislota (HCl) eritmasining titri 0,00365 g/G'ml teng deylik. Bu eritmaning 1 ml da 0,00365 g. HCl erigan degan ma'noni anglatadi.

Umuman, eritmaning titri bilan molyar va normal kontsentratsiyalari urtasida kuyidagicha boglanish bor:

$$T = \frac{m_{\text{модда}}}{V_{\text{объема}}} = \frac{C_H \cdot \mathcal{E}}{1000} \text{ ба } T = \frac{C_M \cdot M}{1000}$$

### **Molyal kontsentratsiya.**

Molyal kontsentratsiya odatda kam ishlatiladigan kontsentratsiya turidir.

Molyal kontsentratsiya deb, 1000 g. erituvchida erigan moddaning "mol" lar soniga aytildi va M q n G' 1000 g. formula bilan xisoblanadi. Agar 1000 g. erituvchida 1 mol modda erigan bulsa, bu eritma 1 molyalli deyiladi.

### **Molyar kism.**

Kupchilik xollarda eritmalar kontsentratsiyasi molyar kism orkali ifodalandi. Umuman, eritmadagi erigan modda va erituvchining mikdori 1 mol deb olinsa, shu 1 molning kanday xissasi erigan moddaga va kanday kismi erituvchiga tugri kelishini kursatuvchi mikdorga molyar kism deyiladi. Shunga kura, erituvchining molyar kismi:

$$N_1 = \frac{n_1}{n_1 + n_2}; \text{ erigan moddaning molyar kismi esa,}$$

$$N_2 = \frac{n_2}{n_1 + n_2}; \text{ xolida ifodalanadi.}$$

Bunda  $n_1$ - erituvchining " mol" lar soni,  $n_2$ - erigan moddaning "mol" lar soni va ular kuyidagicha ifodalanadi:

$$n_1 = \frac{m_{\text{еритувчи}}}{M_{\text{еритувчи}}}; \quad n_2 = \frac{m_{\text{эриган модда}}}{M_{\text{эриган модда}}}$$

Xar kanday eritma uchun  $N_1 Q N_2$  q 1 ga teng. Bu formulalardan tegishli xisoblashlarda foydalaniladi.

### **Eritmalardagi osmos xodisasi.**

Ma'lumki eritma xosil bulishida yoki kontsentratsiyalari bir-biridan fark kiluvchi eritmalar uzaro aralashtirilganda eritmadagi modda zarrachalari va erituvchi molekulalari eritma ichida tartibsiz (Broun) xarakat kila boshlaydi. Bunga misol turli kontsentratsiyali shakar eritmalar aralashmasi bula oladi. Agar kontsentratsiya kam shakar eritmasiga kontsentratsiyasi yukori bulgan shakar eritmasi kushilsa, eritma ichida shakar molekulalari kup joydan kam joyga, erituvchi molekulalari xam kup joydan kam joyga utadi. Eritmada diffuziya xodisasi ruy beradi. Bunda eritmaning entropiyasi  $\Delta S \rightarrow$  max bulguncha, ya'ni eritmada yangidan erigan modda (shakar) molekulalari kayta tekis taksimlanmagunicha davom etadi. Bu ikki *eklama diffuziya* deyiladi.

Agar shakar eritmasi solingan, devori yarim utkazgich xossaga (bir tomonlama utkazuvchan) idishni suvli idishga tushirilsa, bir eklama diffuziya ruy beradi. Suvli idishdagi suv molekulalari (ulchami kichik bulgani uchun) shakar eritmasiga - ichki idishga uta boshlaydi. Ichki idishdagi shakar molekulalari idish devoridagi teshiklarning ulchamidan katta bulgani uchun tashki suvli idishga uta olmaydi. Natijada ichki idishdagi eritma xajmi orta boshlaydi va eritma idishga tutashtirilgan nay orkali kutarila boshlaydi. Bunga *osmos xodisasi* deyiladi.

Osmos xodisasi tufayli ichki idishdagi bosim (gidrostatik bosim) ortadi va suyulik tashki bosimga nisbatan ish bajarib yukoriga kutariladi. Shu jarayonda bajarilgan ishga osmotik bosim deyiladi. Ayni misolda osmotik bosim suyuklikning dastlabki va oxirgi xolatdagi satxlari farkiga teng buladi.

Osmos xodisasi tufayli yuzaga kelgan gidrostatik bosim tashki muxitdagi bosim bilan tenglashganda osmos xodisasi tuxtaydi.

Umuman eritmalardagi osmotik bosim Vant-Goff konuniga kura eritmada erigan modda mikdori  $S$  va temperatura ( $T$ ) ga tugri proporsionaldir:

$P_{osm}$ . q CRT; bunda  $P_{osm}$  - eritmaning osmotik bosimi, Pa, KPa, mm. sim. ust.; R - gaz doimiysi  $8,314 \text{ J G}^{-1} \text{ mol}^{-1} \text{ K}$ .

Agar C q nG'v molyar kontsentratsiyasi ekanligini va n q mG'M ekanligini va xajm (V) millilitrda ulchanishini e'tiborga olsak eritma osmotik bosimi kuyidagiga ifodalanadi:

$$P_{osm}. q = 1000 \text{ m RTG}'M V$$

Kurinib turibdiki, eritmada erigan moddaning molekulyar ogirligi kanchalik kichik, temperatura va erigan modda mikdori kanchalik katta bulsa, osmotik bosim shunchalik yukori buladi.

Osmotik bosim odam organizmi, usimliklar xasetida katta axamiyatga ega.

Usimliklar ildizi xam yarim utkazgichlik xossasiga ega. Tuprokdagi nam ( $H_2O$ ) ni tortib olib usimlik tanasida katta bosim xosil kiladi. Buning isboti usimlik shoxchasi kesib olinsa va bir oz vakt kuyilsa sulib koladi va kaytadan suvli idishga (yoki nam tuprokka) kuyilsa kaytadan uz xoliga keladi. Shu sababli usimlik xatto tuprok tagidan unib chikadi, daraxtning shoxlari egilib kuyilgan bulsada yana yukoriga karab usadi.

Tajribalarning kursatishicha, agar erdag'i namlik 6% ga teng bulib, xarorat  $20^{\circ}\text{S}$  bulsa, bunday erga ekilgan don ekinlari urugi ichida osmotik (gidrostatik) bosim  $4,05 \times 10^6 \text{ Pa}$  ni tashkil etar ekan.

Odam organizmidagi xujayra va tukimalar xam yarim utkazgich parda xossasiga ega. Iste'mol kilinadigan suyukliklar, ozik-ovkatlarning odam tanasiga singishi, muskullarning rivojlanishi osmos xodisasi tufayli sodir buladi.

### **Eritmalarning bug bosimi, kaynash va muzlashi. Raul konunlari.**

Ma'lumki xar kanday suyuk modda temperaturaning xoxlagan kiymatida doimo uz bugi bilan muvozanatda buladi:

$$\text{Suyuklik} \longleftrightarrow \text{Bug}$$

Suyulik ustidagi bug-gazsimon modda bulgani uchun uz bosimiga ega. Suyuklik ustidagi bugning bosimi (xar bir temperatura kiymatida) doimiy sondir.

Toza suyklik, masalan, suv erituvchi bulsa, uning ayni temperaturadagi tuyingan bug bosimi  $P_1$  ga teng. Suvda biror modda (shakar, glyukoza, mochevina) eritsa, xosil bulgan eritma ustidagi bug bosimi  $P_2$  buladi va uning kiymati ayni temperaturada toza suvning tuyingan bug bosimidan past buladi:  $P_1 > P_2$ .

Ikkala bosim urtasidagi fark  $\Delta P$  q  $P_1 - P_2$  eritma tuyingan bug bosimining pasayishi deyiladi. Bu  $\Delta P$  farkning toza erituvchi (suv) tuyingan bug bosimiga nisbati  $\Delta PG'p_1$  q  $P_1 - P_2G'p_1$  eritma tuyingan bug bosimining nisbiy pasayishi deyiladi.

Frantsuz fizigi Raul (1887 y) eritma tuyingan bug bosimini organib uzining birinchi konunini yaratdi. Uning fikri – eritma tuyingan bug bosimining nisbiy pasayishi eritmada erigan moddaning molyar kismiga tugri proportsionaldir:

$$\frac{\Delta P}{P_1} = \frac{P_1 - P_2}{P_1} = N_2 = \frac{n_2}{n_1 + n_2}$$

bunda:  $N_2$  - erigan modda ning molyar kismi;

$n_1$  va  $n_2$  - erituvchi va erigan moddaning eritmadi "mol" lar soni.

Buning sababi yukoridagi "suyuklik - bug" muvozanat xolatidan kelib chikadi. Chunki, suvda modda eriganda suv molekulalari erigan modda molekulalari bilan birikma - gidratlarni xosil kilgani uchun suvdagi suv molekulalari mikdori kamayadi. Bu kamaygan molekulalarni suvli eritma uz ustidagi (bug xolatidagi) suv molekulalarini suyklikka aylanishi, ya'ni  $(H_2O)_{suv} \longleftrightarrow (H_2O)_{bug}$  muvozanatni chapga siljishi tufayli tuldiradi. Bug xolatidagi suv molekulalarining sonini kamayishi ayni temperaturadagi bosimni kamayishiga sabab buladi va eritma ustidagi bug bosimi toza suvnikidan past buladi. Bu xulosa xar kanday eritma uchun doim urinlidir.

Bu xulosalar suv va eritmaning xolat diagrammasi tuzilib, izoxlanadi. Bu grafikka asosan toza suvning barcha xolatlardagi bug bosimi ( $R_1$ ) suvli eritmaning bug bosimi ( $R_2$ ) dan yukori va eritmaning kontsentratsiyasi kanchalik yukori bulsa grafikdagi suv va eritmani ifodalovchi egri chiziklar urtasidagi fark shunchalik katta buladi.

## **Eritmaning kaynash va muzlash temperaturasi**

Eritmalarning kaynash va muzlash temperaturalari xam oddiy toza erituvchi yoki toza ximiyaviy moddanikidan fark kiladi.

Ma'lumki, xar kanday suyuk modda ma'lum temperaturada kaynaydi. Ya'ni uning ichki bosimi tashki muxit bosimiga teng bulganda u gazsimon xolatga utadi. Xuddi shu singari suv  $100^{\circ}\text{S}$  da ( $R \approx 101,3 \text{ KPa}$ ) kaynaydi.  $0^{\circ}\text{S}$  da suyuk xolatdan kattik xolatga utadi - muzlaydi.

Suvda moddalar eriganda suvning (anikrogi xosil bulgan eritmaning) kaynash temperaturasi va muzlash tumperaturasi uzgaradi. Eritmalar toza moddalardan farkli ravishda biror temperatura oraligida kaynaydi va muzlaydi. Buning sababi eritmada turli tarkibli gidratlar (solvatlar) ning xosil bulishidir.

Eritma kaynay boshlagan (yoki muzlay boshlagan) temperatura eritmaning kaynash (yoki muzlash) temperaturasi deyiladi va  $t_{\text{kayn. eritma}}$  yoki  $t_{\text{muz}}$  0eritma xolida belgilanadi. Eritmalarning kaynash temperaturasi erituvchining kaynash temperaturasidan doimo yukori bulib, muzlash temperaturasi erituvchi muzlash temperurasidan past buladi.

Eritma kaynash temperaturasi ( $t_{\text{kayn. eritma}}$ ) bilan toza erituvchi kaynash temperaturasi ( $t_{\text{kayn. erituvchi}}$ ) urtasidagi fark  $\Delta t_{\text{kayn. eritma}} = t_{\text{kayn. eritma}} - t_{\text{kayn. erituvchi}}$  eritma kaynash temperurasining ortishi deyiladi.

Erituvchi muzlash temperaturasi bilan eritma muzlash tumperaturasi ( $t_{\text{muz}}$  erituvchi) urtasidagi fark  $\Delta t_{\text{muz}} = t_{\text{muz}} - t_{\text{muz}}$  (erituvchi) esa, eritma muzlash temperurasining pasayishi deyiladi.

Raulning ebullioskopik (kaynash) va krioskopik (muzlash, kotish) konunlariga kura:

a) eritma kaynash temperurasining ortishi eritmada erigan modda mikdoriga tugri proportsional:

$$\Delta t_{(\text{kayn. eritma})} = m \cdot E = \frac{a \cdot 1000 \cdot E}{M \cdot \epsilon}$$

b) Eritma muzlash temperurasining pasayishi eritmada erigan modda mikdoriga tugri proportsional:

$$\Delta t_{(kaü)} = m \cdot K = \frac{a \cdot 1000 \cdot K}{M \cdot \epsilon}$$

bu formulalarda m - eritmaning molyal kontsentratsiyasi;

a -erigan modda massasi, g.; v- erituvchining massasi, g.;

M - erigan modaning molekulyar massasi, g.G'mol.

E - erituvchining ebullioskopik doimiysi bulib, 1000 g. erituvchida 1 mol modda eriganda erituvchi kaynay temperaturasi necha gradusga ortishini kursatadi. Uning kiymati erituvchining tabiatiga boglik.

K - erituvchining krioskopik doimiysi, 1000 g. erituvchida 1 mol modda eriganda uning muzlash temperaturasi necha grudusga pasayishini kursatadi.K-ning kiymati fakat erituvchining tabiatiga boglik.

Kuyidagi turli erituvchilar uchun E va K ning kiymatlari keltirilgan:

<i>Erituvchi</i>	<i>E, °C</i>	<i>K, °C</i>
<b>Suv</b>	0,52	1,86
<b>Benzol</b>	2,64	5,12
<b>Sirka kislota</b>	3,10	3,90

Kupchilik xollarda yukoridagi konuniyatlardan foydalanib ebullioskopik yoki krioskopik usullarda moddalarning molekulyar ogirliklari tajribada aniklanadi.

Ba'zi xollarda nazariy xisoblash asosida amalda past temperaturada muzlovchi aralashmalar xosil kilinadi. Shu yul bilan suvda ma'lum mikdordagi NaCl eritilib -  $21^0S$  gacha muzlamaydigan aralashma xosil kilsa buladi va xokazo.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Dispers sistema, disperslik tushunchalarini izoxlang.
2. Dispers sistemalar kanday klassifikatsiyalanadi?
3. Eruvchanlik koeffitsienti - nima?
4. Tuyinmagan, tuyingan, uta tuyingan eritmalar ga izok bering.
5. Eritma kontsentratsiyasi deganda nimani tushunasiz? Molyar, normal kontsentratsiyalarni izoxlang.

6. Erigan moddaning massa ulushi (foiz kontsentratsiya) va eritma titri deganda nimani tushunasiz?
7. Eritmalarda diffuziya va osmos xodisalarining moxiyatini tushuntiring.
8. Eritmalarning muzlash va kaynash temperaturayadi deganda nimani tushunasiz.
9. Ebullioskopik va krioskopik doimiylarning ma'nosini tushuntiring.
10. Gazlarning eruvchanligiga oid Genri konunini izoxlang.
11. Raul konunlarining ma'nosini tushuntiring.
12. Osmotik bosim tugrisida Vant-Goff konunini izoxlang.

### **Tayanch iboralar:**

Bu mavzuda urganiladigan tayanch iboralar: dispers sistema, dispers muxit, dispers faza, dagal, nozik dispers sistemalar, suspenziya, emultsiya, kolloid eritma, zollar, chin eritma, kattik, suyuk, gaz eritmalar, gidratlar, solvatlar, erish issikligi (entalpiya), moddalarning eruvchanligi, tarkalish koeffitsienti, Genri konuni, tuyingan, tuyinmagan, uta tuyingan eritmalar, eritma kontsentratsiyasi (foiz, normal, molyar, titr, molyal, molyar kism), osmos xodisasi, Raul konuni, ebullioskopik va krioskopik konunlar.

## **VIII MAVZU**

### **ELEKTROLITLARNING ERITMALARI.**

#### **Reja:**


1. Elektrolitlar xakida tushuncha.
2. Izotonik koeffitsient.
3. Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi.
4. Dissotsiyalanish darajasi va doimiysi.
5. Suvning ion kupaytmasi.  $rN$  xakida tushuncha.

#### **Adabiyotlar:**

1. X. R. Raximov "Anorganik ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1981., 119-124 betlar.
2. N. S. Axmetov "Neorganicheskaya ximiya", Moskva "Vo'sshaya shkola", 1969 g., 186-187 betlar.
3. R. Ubaydullaeva, Sh.Abdullaev "Umumiy kimyodan nazariy va amaliy mashgulotlar" Toshkent "Uzbekiston" 1997 y., 100-107 betlar.
4. T.M. Mirkomilov, X.X.Muxitdinov "Umumiy ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1987 y., 87-94 betlar.
5. K. Axmerov va boshkalar."Umumiy va anorganik ximiya" Toshkent "Ukituvchi", 1988 y., 141-143 betlar.
6. X.R. Raximov va boshkalar."Anorganik ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1980 y., 86-100 betlar.
7. Z.K. Kodirov, Sh.K. Norov, A.G. Muftaxov "Anorganik ximiyadan amaliy mashgulotlar", Toshkent "Ukituvchi", 1996 y., 53-68 betlar.

Kupchilik tajribalar shuni kursatadiki, aksariyat kislota, asos va tuzlarning eritmalarini osmotik bosimi, kaynash temperaturasining ortishi, muzlash tumperaturasining pasayishi va eritma bug bosimining nisbiy pasayishi ularning molyar kontsentratsiyalari kiymatiga nisbatan ikki, uch va bir necha marta yukori buladi. Masalan: osh tuzi 1% li eritmasining tajribada topilgan  $\Delta t(muz)$  kiymati Raulning krioskopik konuni formulasi buyicha xisoblangan kiymatdan kariybik ikki marta,  $MgCl_2$  uchun - 3 marta va  $Al_2(SO_4)_3$  eritmasi uchun - 5 marta katta chikadi.

Buning sababi shuki, bu moddalarning suvli eritmasida yoki suyuklanmasida zarrachalarning soni 2,3, ...5 marta kup, ya'ni kislota, asosiy tuzlar eriganda yoki suyuklanmaga utganda musbat va manfiy zaryadli ionlarga parchalanadi:



Moddalarni karama - karshi zaryadli ionlarga parchalanishi elektrolitik dissotsiyalanish (parchalanish) deyiladi. Eritmada va suyuklanmada musbat va

manfiy zaryadli ionlarga parchalanib elektr tokini utkazish xossasiga ega bulgan moddalarni elektrolitlar deyiladi.

Yukoridagi misollardan kurinib turibdiki, NaCl dissotsiyalansa uning 1 molekulasi 2 ta ionga, MgCl<sub>2</sub> -3 ta (1 ta Mg va ikkita - Cl<sup>-</sup>) ionlariga, Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> esa - 5 ta ( 2 ta - Al, 3 ta - SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ) ionga parchalanadi. Shu sababli bu moddalarning eritmalarini  $\Delta t$ (muz) kiymati Raul konunidan 2,3 va 5 marta chetga chikadi. Bu chetlanishlarni e'tiborga oluvchi kattalik - izotonik koeffitsient tushunchasi kiritilgan. Izotonik koeffitsienti i-xarfi bilan belgilanib, uning kiymati elektrolit eritmasining osmotik bosimi, tuyingan bug bosimi, kaynash va muzlash temperaturalarining tajribada topilgan kiymati ayni kontsentratsiyali eritma uchun nazariy xisoblangan kiymatdan necha marta fark kilishini kursatadi va kuyidagicha xisoblanadi:

$$i = \frac{P_{osm(мажр)}}{P_{osm(наэ)}} = \frac{\Delta t_{муз(мажр)}}{\Delta t_{муз(наэ)}} = \frac{\Delta t_{каи(мажр)}}{\Delta t_{каи(наэ)}}$$

Izotonik koeffitsientning tarjimasi "izos"- "bir xil" "teng", "tonos" - "kuch", "bosim" degan ma'noni bildiradi.

Elektrolitlar eritmasida xam osmos xodisasi ruy beradi. Lekin bu osmotik bosimning kiymati elektrolitmas moddalarning osmotik bosimidan fark kiladi va kuyidagicha matematik kurinishida ifodalanadi:

$$P_{osm} = \frac{I \cdot m \cdot 1000 \cdot R \cdot T}{M \cdot V}$$

Xuddi shuningdek elektrlit eritmalarining kaynash va muzlash temperaturalarining uzgarishi

$$\Delta t_{каи} = i \cdot E \cdot m = \frac{i \cdot a \cdot E \cdot 1000}{M \cdot B} \text{ va } \Delta t_{муз} = i \cdot K \cdot m = \frac{i \cdot a \cdot K \cdot 1000}{B \cdot M}$$

formulalar bilan xisoblanadi.

Yukoridagi fikrlarning isboti sifatida kuyidagi jadvalni keltiramiz:

Ba'zi tuzlarning 0,2 n eritmasi uchun i-ning kiymatlari:


Tuzning nomi	Formulasi	Muz. temp. ning pasay.		$i = \frac{\Delta t_{myz(maz)}}{\Delta t_{myz(naz)}}$
		Tajribada	Nazariy	
Kaliy xlorid	KCl	0,673	0,372	1,812
Kaliy nitrat	KNO <sub>3</sub>	0,664	0,372	1,782
Magniy xlorid	MgCl <sub>2</sub>	0,519	0,186	2,793
Kaltsiy nitrat	Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	0,461	0,186	2,483

Shuni e'tiborda tutish kerakki, yukoridagi singari osmotik bosimning yukori bulishi nafakat elektrolit eritmalariga xos bulib kolmay, balki ba'zi gazsimon va gazga aylanadigan moddalar uchun xam xosdir. Masalan, PCl<sub>5</sub> fosfor pentaxlorid kizdirilganda PCl<sub>5</sub>  $\longrightarrow$  Cl<sub>3</sub> + Cl<sub>2</sub> tenglama buyicha termik dissotsiyalanadi va sistemadagi zarrachalar soni ikki marta ortadi. Shu tufayli sistemaning tajribada aniklangan osmotik bosimi Raul konuni buyicha xisoblanganidan ikki marta yukoridir.

### **Elektrolitik dissotsilanish nazariyasи.**

Shved olimi S.Arrenius elektrolit eritmalarining Raul konunidan chetlanishi va elektr tokini utkazish xossalariни urganib elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasini yaratdi. Uning nazariyasiga kura:

xar kanday elektrlit suvli eritmada yoki suyuklanmada musbat va manfiy zaryadli ionlarga parchalanadi:



elektrolit  $\longleftrightarrow$  kation anion

- musbat zaryadli ionlar - kation (elektrning manfiy zaryadli kutbi - katodga tortiluvchi ion;). Bular H<sup>Q</sup>, NH<sup>Q</sup><sub>4</sub> va barcha metallarning ionlari.

- manfiy zaryadli ionlar - anion (elektrning musbat kutbi -anodga tortiluvchi ion) deb aytildi. Bu ionlarga OH<sup>-</sup> va barcha kislota koldigi ionlari kiradi.

- Kation va anionlar eritmada va suyuklanmada elektr tashuvchilik vazifasini bajaradilar va shuning uchun elektrolitlar eritma va suyuklanmalari elektr utkazuvchanlik xossasiga ega buladi. Elektrolitlar ikkinchi tur utkazgichlar deb aytildi.


Elektrolitlarning suvda dissotsiyalanish mexanizmi molekulalararo ta'sirning induksion, orientatsion turlari va eritma xosil bulishining gidratlar nazariyasidan kelib chikadi.

Suvda erigan elektrolit molekulasi ionlardan iborat bulgan yoki kutbli molekula bulgani uchun suv molekulalari bilan elektrolit molekulalari (yoki kristall panjaradagi ionlar) urtasida orientatsion ta'sir yuzaga keladi va bu ta'sir natijasida kristall panjaraning "tugun"larida joylashgan ionlar urtasidagi elektrostatik tortishuv kuchlari (ion boglanish) kuchsizlanib, elektrolit musbat va manfiy ionlarga ajraladi.

Agar kutbli modda molekulasi bulsa, suv molekulalarining orientatsion ta'siri tufayli kutbli molekulaning kutbligi yanada ortadi va natijada kutbli molekula parchalanadi - musbat va manfiy ionlar xosil buladi.

Keltirilgan sxemadan kurinib turibdiki, eritmaga utgan xar bir kation yoki anion erkin xolda bulmaydi. Bu ionlar erituvchi -suv molekulalari bilan kurshab olingan, ya'ni gidratlangan xolda buladi. Shu sababli bu ionlarni  $\text{Kat}^*\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{An}^*\text{H}_2\text{O}$  xolida yozish kerak.

Masalan: kislotalar dissotsiyalanganda kation sifatida  $\text{H}^Q$  ionlari va anion - kislota koldigini xosil kiladi:



Xosil bulgan vodorod ionining gidrati ( $\text{H}^Q*\text{H}_2\text{O}$ ) ni  $\text{H}_3\text{O}^Q$  - gidroksoniy ioni deyiladi.

Lekin reaksiya tenglamalarini tuzishda bunday ezuv usuli kiyinchiliklar tugdirishi sababli ionli tenglamalarda suv molekulalari ezilmaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, fakatgina suv molekulalari dissotsiyalovchi bulibgina kolmay, balki kupchilik suyuk xoldagi moddalar ( $\text{HNO}_3$ ,  $\text{HCOOH}$  -

chumoli kislotasi,  $C_2H_5OH$  - etil spirti, ammiak  $-NH_3$ ) xam ionlovchi moddalar (erituvchilar) katoriga kiradi.

### **Dissotsiyalanish darajasi. Dissotsiyalanish doimiysi.**

Ma'lumki, S.Arreniusning nazariyasiga asosan, elektrolitik dissotsiyalanish jarayoni kaytar reaktsiyadir. Erituvchida eritilgan yoki suyuklanmadagi elektrolit molekulalari tulik ionlarga ajralib ketmaydi.

1. Oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarining moxiyatini tushuntiring.
2. Oksidlovchi va kaytaruvchi nima? Kanday moddalar oksidlovchi yoki kaytaruvchi bula oladi?
3. Elektron balans usulining moxiyati nimadan iborat?
4. Ion-elektron usuli deganda nimani tushunasiz va uning afzallik tomonlari nimada?
5. Oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarining asosiy turlarini izoxlang.
6. Disproportsilanish reaktsiyalarining moxiyatini tushuntiring.
7. Oksidlovchilarga misollar keltiring va oksidlovchilik xossalari sabablarini tushuntiring.
8. Kaytaruvchi moddalarga misollar keltiring va kaytaruvchilik xossalari sababini izoxlang.

### **Tayanch iboralar:**

Mavzuda urganiladigan asosiy tayanch iboralar: oksidlanish darajasi, oksidlanish, kaytarilish, oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalari, oksidlovchi, kaytaruvchi, elektron tenglama, elektron balans usuli, ion-elektron usuli, molekulalararo, ichkimolekulyar va disproportsilanish oksidlanish kaytarilish reaktsiyalari.

**X-MAVZU**  
**ELEKTROXIMIYAVIY JARAYONLAR**

**Reja:**

1. Elektrod va elektrod potentsiali xakida tushuncha.
2. Kush elektr kavati.
3. Elektr yurituvchi kuch xakida tushuncha.
4. Standart oksidlanish potentsiali.
5. Metallarning kuchlanishlar katori xakida.
6. Galvanik elementlar xakida tushuncha.
7. Korroziya va undan ximoyalanish yullari.
8. Elektroliz xakida tushuncha.
9. Elektrolizga doir Faradey konunlari.

**Adabiyotlar:**

1. X. R. Raximov "Anorganik ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1981., 179-190 betlar.
2. N. S. Axmetov "Neorganicheskaya ximiya", Moskva "Vo'sshaya shkola", 1969 g., 202-207 betlar.
3. R. Ubaydullaeva, Sh.Abdullaev "Umumiy kimyodan nazariy va amaliy mashgulotlar" Toshkent "Uzbekiston" 1997 y., 122-141 betlar.
4. T.M. Mirkomilov, X.X.Muxitdinov "Umumiy ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1987 y., 133-152 betlar.
5. K. Axmerov va boshkalar."Umumiy va anorganik ximiya" Toshkent "Ukituvchi", 1988 y., 154-161 betlar.
6. X.R. Raximov va boshkalar."Anorganik ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1980 y., 203-212 betlar.
7. N.X. Maksudov "Umumiy ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1979 y., 122-134 betlar.
8. Z.K. Kodirov, Sh.K. Norov, A.G. Muftaxov "Anorganik ximiyadan amaliy mashgulotlar", Toshkent "Ukituvchi", 1996 y., 86-100 betlar.

Ximianing bu bulimi oksidlanish-kaytirilish reaktsiyalarining amalda kullanilishiga tegishli bulib, uz ichiga galvanik elementlar, ularning ishlash printsipi, elektroliz va metallar korroziyasi kabi mavzularni oladi.

Bu mavzularni tushunib etish uchun element (ion)ning "oksidlanish potentsiali" tushunchasini bilish kerak.

*Oksidlanish potentsiali xakida tushuncha:* Xar bir element yoki ionning oksidlovchilik va kaytaruvchilik xususiyatini (kuchini) mikdoriy xarakteristikasi sifatida oksidlanish potentsiali kiymati xizmat kiladi. Oksidlanish potentsiali tushunchasini kuyidagi misol bilan tushunib olaylik.

Rux metali bulakchasini (xoxlagan biror metall bulakchasi xam xuddi shunday xossaga ega) uning tuzi ( $ZnSO_4$ ) eritmasiga tushirilsa rux elektrodi xosil buladi va elektrodda metallning sirti bilan eritma sirti chegarasida elektroximiyaviy reaktsiya boradi. Bu reaktsiya natijasida  $Zn$  - plastinkasi tarkibidagi rux atomlari 2 tadan elektron chikarib oksidlana boshlaydi:  $Zn^0 - 2e^- \longrightarrow Zn^{Q2}$ . Elektronlar metall plastinkasida koladi, eritmaga  $Zn^{Q2}$  - ionlari utadi. Natijasida eritma bilan metall plastinka sirtida kush elektr (metall manfiy zaryadli, eritma musbat zaryadli) (13-rasm), kavatni xosil kiladi. Xosil bulgan kush elektr kavatda zaryadlarni bir nuktadan ikkinchi nuktaga kuchishi ruy beradi.

Eritma bilan metall plastinkasi sirt chegaralarida zaryadning (yoki elektronlarning) bir nuktadan ikkinchi nuktaga kuchishi tufayli bajarilgan ish - shu metall (ion) ning oksidlanish potentsiali deyiladi. Xar kanday element (ion) ning oksidlanish potentsiali  $E_{okG'kayt}$  xolida belgilanadi va "volt - v", "millivolt mv" biriklarda ulchanadi.

Xar bir elektrodning potentsial kiymati elementning yoki eritmadagi ionning tabiatini, mikdori (kontsentratsiyasi) va temperaturaga boglik. Bu boglanish Nernst tenglamasi orkali ifodalash mumkin:

$$E = E_{ok.ka\ddot{u}m}^0 + \frac{2,3RT}{nF} \lg \frac{[OKC]}{[ka\ddot{u}m]}$$

Bu erda:  $E$  - oksidlanish potentsiali, v

$E_{okG'kayt}$  - ostandart oksidlanish potentsiali, v

R - gaz doimiysi 8,314jG'(mol\*K)

T - absolyut temperatura, 298K

n - berilgan yoki kabul kilingan elektronlar soni

F - Faradey soni, 96500 Kl

[oks] - oksidlangan formaning kontsentratsiyasi, molG'1

[kayt] - kaytarilgan formaning kontsentratsiyasi, molG'1

Agar R,T,F - larning son kiymatlarini urniga kuysak, Nernst formulasi kuyidagi kurinishga keladi:

$$E = E_{\text{ок.кайт}}^0 + \frac{0,059}{n} \lg \frac{[\text{окс}]}{[\text{кайт}]}$$


Metall elektrodlarida kaytarilgan forma metall atomiga tugri kelgani uchun tenglamadagi [kayt] q [Me<sup>0</sup>] q 1 molG'1 ga teng deb kabul kilinadi va u xolda Nernst tenglamasi:

$$E = E_{\text{Me}^{+\frac{n}{n}}/\text{Me}^0}^0 + \frac{0,059}{n} \lg [\text{Me}^{+n}] \text{ kurinishda eziladi}$$


*Standart oksidlanish potentsiali.* Nernst tenglamasiga kura, agar eritmada potentsial xosil kiluvchi ion (Me<sup>Qn</sup>) ning kontsentratsiyasi [Me<sup>Qn</sup>] q 1 molG'1 bulsa, u xolda Ig[Me<sup>Qn</sup>] q lg1 q 0 buladi va shu sababli E<sub>окG'кайт</sub> q E<sup>0</sup> buladi. Boshkacha aytganda, standart oksidlanish potentsiali - bu t q 25<sup>0</sup>S da eritmada potentsial xosil kiluvchi ion kontsentratsiyasi "1 molG'1" ga teng bulganda yuzaga keladigan elektrod potentsialidir. Odatda element (ion) ning oksidlanish potentsialining absolyut kiymatini aniklash mumkin emas. Shu sababli element (ion) ning oksidlanish potentsiali kiymati normal vodorod elektrodi (NVE) potentsialiga nisbatan aniklanadi. Ayrim elementlarning standart oksidlanish potentsialining kiymatlari 2-jadvalda keltirilgan. Standart oksidlanish potentsialining kiymatlaridan foydalanib oksidlovchi va kaytaruvchilarni xamda ularning kuchini, aniklanish-kaytarilish reaksiyalari yunalishini, galvanik elementlarning elektr yurituvchi kuchi (EYuK) ni xisoblash mumkin.

*Normal vodorod elektrodi:* Bu  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga  $[\text{H}^{\text{Q}}]$  q 1 molG'1 tushirilgan sirtiga  $\text{N}_2$  - gazi ( $P_{\text{H}_2}$  q 101,3 kPa) yuttirilgan platina plastinkasidan iborat elektroximiyaviy sistemadir. Bu elektroddagi kuyidagi oksidlanish:

$(\text{Pt})\text{H}_2 - 2e^- \longrightarrow 2\text{N}^{\text{Q}} (\text{H}_2\text{SO}_4)$  va kaytarilish:  $2\text{H}^{\text{Q}}(\text{H}_2\text{SO}_4) + 2e^- \longrightarrow \text{H}_2$  (Pt) reaktsiyasi boradi. Bu elektrodning shartli ximiyaviy formulasi -  $(\text{Pt})\text{H}_2\text{G}'(\text{H}_2\text{SO}_4)$ . Agar NVE oksidlanish potentsiali  $E^{0\text{okG'kayt}} > 0$  bulgan yarim element (elektrod) oksidlovchi bilan ulansa, vodorod gazi oksidlanadi va eritmada  $\text{N}^{\text{Q}}$  - ionlari mikdori oshib ketadi:



Agar aksincha,  $E^0 < 0$  bulgan yarim element (elektrod) - kaytaruvchi bilan ulansa, vodorod ionlari kaytariladi va  $\text{N}_2$  - gazi xosil buladi:



Umuman,  $\text{N}_2^0 - 2e^- \longrightarrow 2\text{N}^{\text{Q}}$  reaktsiyada oksidlanish potentsiali  $E^0$  q -0,41 v bulsada, bu kaymat boshka elementlarning oksidlanish potentsiali kiymatini ulchashda kulay bulsin uchun shartli  $E^0$  q 0 deb kabul kilingan. Shu sababli  $E^0_{\text{NVE}}$  q 0 v.

Xar kanday element (ion) ning oksidlanish potentsialini aniklash uchun NVE va potentsiali aniklanishi zarur bulgan elementdan iborat yagona elektroximiyaviy sistema- galvanik element tuziladi. Bu galvanik element NVE potentsiali bilan potentsiali aniklanaetgan element oksidlanish potentsiali kiymatlari farkiga teng elektr yurituvchi kuch - (EYuK) ni xosil kiladi.

$$\Delta E = E_{\text{YuK}} - E_{\text{n.v.e}} - E_{\text{MeQ}} + 0 - E_{\text{Me}}^{\text{Q}}$$

Bu EYuK ning kiymati potentsiali aniklanaetgan element yoki ionning oksidlanish potentsiali sifatida kabul kilinadi. Shuni unutmangki, agar ikkinchi yarim element sifatida uz tuzi eritmasiga tushirilgan metall plastinkasi (I - tur elektrod bulsa, aniklanadigan potentsial elektrod potentsiali deyiladi, M: NVE bilan  $\text{CuG'CuSO}_4$  - mis elektrodi ulansa, aniklanadigan potentsial Cu -elektrodi potentsiali deyiladi).

Agar yarim element-inert elektrod (Pt) va oksidlanish-kaytarilish jufti ( $\text{M}: \text{MnO}_4^- + \text{H}^{\text{Q}} \longrightarrow \text{Mn}^{\text{Q}2} + \text{H}_2\text{O}$ ) dan iborat bulsa, bu xolda aniklangan

potentsial oksidlanish-kaytarilish yoki "redoks" potentsiali deb aytildi. Shu usul bilan aniklangan oksidlanish potentsiallari kiymati xar bir ionning oksidlovchilik yoki kaytaruvchilik xossasini aniklashda xoxlagan galvanik elementning EYuK ni xisoblashda va oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarining yunalishini aniklashda asosiy kattalik sifatida kullaniladi.

### **Metallarning kuchlanishlar katori**

Agar yukoridagi 2-jadvalda keltirilgan metallarning  $E_{\text{okG'kayt}}^0$  kiymatlarini manfiy ishorali kiymatidan boshlab usib borishi tartibida joylashtirib chikilsa, metallarning oksidlanish potentsiali katori - metallarning kuchlanishlar katori xosil buladi.

Bu katorda elementlarning  $E_{\text{okG'kayt}}^0$  kiymati ortib borishi bilan:

- metallarning kaytaruvchilik kuchi kamayib boradi, ular musbat zaryadli ionlarning oksidlovchilik xossalari kuchaayib boradi;
- vodoroddan chapda joylashgan barcha metallar ( $E_{\text{okG'kayt}}^0 < 0$ ) vodorod ioni ( $N^Q$ ) ga nisbatan kaytaruvchi bulib, suv yoki eritmalardan vodorodni sikib chikaradi;
- vodoroddan unga turgan ( $E_{\text{okG'kayt}}^0 > 0$ ) barcha metallar "pacsiv" metallar bulib, eritmadan  $N^Q$  ionlarini  $N_2^0$  xolida sikib chikara olmaydi.
- bu katordagi xar kanday metall uzidan keyin (ungda)turgan xar kanday metallni uning tuzi eritmasidan sikib chikara oladi. Oksidlanish-kaytirilish reaktsiyalarining yunalishini aniklash. Ma'lumki, (termodinamika elementlari mavzusiga asosan) xar kanday ximiyaviy reaktsiyaning amalga oshishi uchun shu reaktsiya nitijasida Gibbs energiyasining uzgarishi  $\Delta G_2 < 0$  bulishi shart. Oksidlanish-kaytirilish reaktsiyalari borishi uchun xam shu shart ( $\Delta G_2 < 0$ ) bajarilishi shart.

Oksidlanish va kaytarilish uzaro karama-karshi va bir vaktning uzida elektronlarning bir atomdan boshkasiga utishi bilan sodir buladigan raektsiyalardir. Bu reaktsiyalarda elektronlarning bir atomdan boshkasiga (kaytaruvchidan oksidlovchiga) utishi natijasida sistema tashki muxitga nisbatan ish -  $A_{\text{el}}$  bajaradi. Bu ishning manfiy ishorali kiymati oksidlanish-kaytarilish reaktsiyasining Gibbs energiyasi uzgarishi:  $G q - A_{\text{el}}$  ga teng buladi.



$A_{el}$  bajarilgan ish mikdor jixatdan oksidlovchi va kaytaruvchi oksidlanish potentsiallari farki  $\Delta E = E_{oksid}^0 - E_{kayt}^0$  ning kaytaruvchidan oksidlovchi element atomlariga utgan elektron soni  $n$  ga kupaytmasiga tengdir:  $A_{el} \propto n^* \Delta E$ .

Agar "1 mol" modda  $n^* Z_e * N_A$  mikdor zaryadni utkazish uchun  $n$  ta elektron bersa yoki kabul kilsa, (bu erda  $n$  - oksidlanish yoki kaytarilishda ishtirok etgan elektronlar soni,  $Z_e$ -elektronning zaryadi,  $N_A$  - Avogadro soni va  $Z_e * N_A$  q F q 96500 Kulon Faradey soni) u xolda ish:  $A_{el} \propto n^* F \Delta E$  yoki  $\Delta G \propto -n^* F \Delta E$  buladi. Bu formula shuni bildiradiki, oksidlovchi va kaytaruvchilarning oksidlanish potentsiallari bir-biridan kanchalik keskin fark kilsa ( $\Delta E > 0$  yoki  $E_{oksid}^0 > E_{kayt}^0$ ) shunchalik  $\Delta G < 0$  buladi, reaktsiyaning oddiy (standart) sharoitda borish extimolligi shunchalik yukori buladi va uning muvozanat doimiysi ( $K_{muv}$ ) shunchalik katta buladi.

Yukorida baen etilgan asosiy tushuncha va koidalarni amalda foydalanishga doir kuyidagi masala bilan tanishaylik:

M: 2- jadvaldagagi oksidlanish potentsiallari kiymatidan foydalanib,  $Zn + HNO_3(s) \rightarrow Zn(NO_3)_2 + NO + H_2O$  reaktsiyasida oksidlovchi va kaytaruvchilarni aniklang. Shu reaktsiyani teskari yunalishda amalga oshirish mumkinmi?

Echish: a) Oksidlanish-kaytarilish reaktsiyasining elektron va tulik tenglamalarini tuzamiz, xar bir reaktsiya uchun  $E_{okG'kayt}^0$  kiymatini yozib olamiz:



b) Reaktsiyada rux atomlari elektron berayapti,  $NO_3^-$  ionlari bu elektronlarni rux atomlardan "tortib" (kabul kilib) olayapti. Nima uchun shunday bulayapti? Chunki,  $NO_3^-$  nitrat ionlarining 2 ta elektron kabul kilib  $NO$  - azot (II) oksidi xoliga utish potentsiali  $Q0,96$  v bulib, rux atomidagi 2 ta elektronni rux atomlariga boglanib turish energiyasi (-0,76 v) dan katta. Shu sababli  $NO_3^-$  ionlari Zn atomida

elektronlarni "tortib" olishga kuchi etadi va bu reaktsiyada  $\text{NO}_3^-$  - ionlari - oksidlovchi Zn - atomlarikaytaruvchi vazifasini bajaradi. Shuni unutmangki, reaktsiyada ishtirok etuvchi kaysi element yoki ionning elektr (redoks) potentsiali kiymati katta bulsa, u- oksidlovchi, kichik bulsa - kaytaruvchi buladi.

v) Yukoridagi koidaga ( $\Delta G < 0$ ) kura, ushbu reaktsiya yunalishini aniklash uchun avval  $\Delta E = E_{\text{oksid}}^0 - E_{\text{kayt}}^0$  formula asosida reaktsiyaning elektr yurituvchi kuchi -  $\Delta E$  ni xisoblaymiz.

$\text{NO}_3^-$  - ioni oksidlovchi, Zn-kaytaruvchi, shu sababli  $\Delta E = E_{\text{oksid}}^0 - E_{\text{kayt}}^0$  q 1,72 v > 0 ya'ni  $\Delta E > 0$  shartni kanoatlantiradi. Bunga yanada tulik ishonch xochil kilish uchun G - ning kiymatini xisoblaymiz. Reaktsiyaning elektron tenglamasiga kura 3 ta Zn atomi 2 ta  $\text{NO}_3^-$  ioni urtasida 6 ta elektron almashinuvi ruy berayapti. Shunga kura n q 6 ga teng. Endi:  $\Delta G = n \cdot F \cdot \Delta E = (6 \cdot 96500 \cdot 1,72) \text{ q} = 995,88 \text{ kj}$  ga teng. Bu  $\Delta G > 0$  shartni tulik kanoatlantirgani uchun ushbu reaktsiya standart sharoitda juda tez va oxirigacha tulik boradi.

g) Teskari:  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{NO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Zn} + \text{HNO}_3$  yunalishda reaktsiya borishi yoki bormasligi tugrisida xulosa kilish uchun  $\Delta E$  – ni xisoblaymiz.

Agar bu reaktsiya borsa  $\text{Zn}^{Q2} \rightarrow \text{Zn}^0$  (kaytarilishi) va  $\text{NO} \rightarrow \text{NO}_3^-$  (oksidlanishi) bulib,  $\text{Zn}^{Q2}$  oksidlovchi NO kaytaruvchi vazifasini bajaradi. Lekin  $E_{\text{Zn}}^0 - E_{\text{Zn}}^{Q2} = 0,76 \text{ q}$  <  $0,96 \text{ q}$   $E_{\text{NO}_3^- + 4\text{H}^+ / \text{NO} + 2\text{H}_2\text{O}}$  bulgani uchun  $E = (-0,76) - (0,96) \text{ q} = -0,20 \text{ v}$  buladi va bu  $\Delta E > 0$  shartga ziddir. Bu kiymatga asoslanib G ning kiymatining xisoblasak  $\Delta G = 115,8 \text{ kj}$  ga teng buladi. Bu kiymat xam  $\Delta G < 0$  shartiga tugri kelmaydi. Demak, bu reaktsiyani standart sharoitda teskari yunalishda amalga oshirib bulmaydi.

## Galvanik elementlar

*Galvanik elementlar* deb, oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalari natijasida ximiyaviy energiyani elektr energiyasiga aylantirib beruvchi elektro-ximiyaviy sistemalarga aytildi.

Galvanik elementlar boshkacha nom bilan ximiyaviy tok manbalari xam deb aytildi. Bular katoriga akkumulyatorlar, batareyalar kiradi. Galvanik elementlarning ishlash printsipini tushunish uchun mis-rux elementining xosil bulishi va ishslash mexanizmini urganamiz.

Rux metalini rux sulfat tuzi eritmasiga tushirilganda yuz beradigan elektro-ximiyaviy jarayon bilan yuqorida tanishdik. Bunda rux elektrodi xosil bulib,  $C_{Zn^{+2}}$  q 1 molG'l bulganda  $E^0$  q - 0,76 v ekanligini kurdik (14- rasm).


Xuddi shuningdek mis plastinkasini mis sulfat tuzi eritmasiga tushirilsa (14-rasm), eritmadi mis ionlari plastinka sirtiga utiradi va kush elektr kavat xosil buladi, plastinka musbat zaryadlanadi. Bu ikkala elektrodlarni KSl eritmasi bilan tuldirilgan "elektrolitik kuprik" orkali tutashtirilib, elektrodlar voltmetrga ulansa potentsiallar farki yuzaga kelib, elektr yurituvchi kuch (EYuK) paydo bulib, uning kiymati:  $\Delta E$  q  $E^0_{oks}$  -  $E^0_{kayt}$  q Q0,34 - (-0.76) q Q 1,10 v. ga teng buladi.

Bunda mis elektrodi musbat zaryadlanib *katod* deyiladi, rux elektrodi manfiy zaryadlanib *anod* deyiladi. Bu galvanik elementning ximiyaviy formulasi: (anod)(-ZnG'ZnSO<sub>4</sub>G'G'KCIG'G'CuSO<sub>4</sub>G'Cu (Q) katod. Shu sababli  $\Delta E$  q  $K_{katod}$  -  $E_{anod}$  xolda xam xisoblanadi.

Xar kanday galvanik elementning EYuK i ionlarning kontsentratsiyasiga, ionning tabiatiga va temperaturaga boglik buladi (Nernst tenglamasi).

Zn	-	+	ZnSO <sub>4</sub> эритмаси	[CuSO <sub>4</sub> ] [еритмаси]	+	Cl <sup>-</sup>
	-	+	Zn <sup>+2</sup>	Cu <sup>+</sup>		
	-	+	SO <sub>4</sub> <sup>-2</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>		
	-	+				
	-	+				
	-	+				

13 – Расм Металл ва эритма сирт чегарасида күш электр кават хосил булиш схемаси



$$\text{Э.Ю.К.} = \Delta E = E_{\text{катод}}^0 - E_{\text{анод}}^0 = +0,34 - (-0,76) = +1,1 \text{ В}$$

$$(-) Zn^0 / Zn^{+2} // Cu^{+2} / Cu^0 (+)$$

14 – Расм Мис - Рух гальваник элементи схемаси

Galvanik elementlarga tegishli ayrim masalalarini kurib chikaylik.

Masalan: 0,01 M Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> eritmasiga rux plastinkasi 0,01 M AgNO<sub>3</sub> eritmasiga kumush plastinkasi tushirilganda xosil kilingan galvanik elementning elektr yurituvchi kuchini xisoblang.

Echish: Ma'lumki rux plastinkasi uz tuzi eritmasiga tushirilsa rux eriy boshlaydi, ya'ni oksidlanadi (Anod). E<sup>0</sup> q - 0,76 v. Ikkinci - Ag plastinka uz tuzi eritmasiga tushirlganda eritmadi Ag<sup>+</sup> ionlari plastinkaga utira boshlaydi va bu musbat zaryadlanadi (Katod), ikkala plastinka uzaro tutashitirlganda Ag – ionlari kaytariladi.

Umuman rux - kumush galvanik elementi ishlaganda kuyidagi reaktsiyalar boradi: Zn<sup>0</sup> - 2e<sup>-</sup> → Zn<sup>Q2</sup> va Ag<sup>Q</sup> Q e<sup>-</sup> → Ag<sup>0</sup>

Xar kanday galvanik elementning e.yu.k. kuyidagi formula bilan xisoblanadi:

E.Yu.K. q E<sub>katod</sub> - E<sub>anod</sub> q E<sub>oksidlovchi</sub> - E<sub>kaytaruvchi</sub> dan kelib chikib, rux va kumushning standart oksidlanish potentsiallarini bilgan xolda Nernst formulasidan foydalanib xar ikkala elektrodning ksidlanish potentsialini xisoblaymiz. (E<sub>katod</sub> q Q 0,68 v va E<sub>anod</sub> q - 0,72 v kelib chikadi. Bulardan foydalanib galvanik elementning E.Yu.K. q Q0,682 - (-0,72) q Q1,402 v.

### Metallar korroziyasi

Metallar korroziyasi - metall va metall kotishmalarining tashki muxit ta'sirida ximiyaviy yoki elektroximiyaviy emrilish xodisasidir. Xar kanday korroziyalanish oksidlanish - kaytarilish reaktsiyalarining natijasidir.

Metallarning korroziyalanishiga sababchilar: xavodagi nam (H<sub>2</sub>O) kislород (O<sub>2</sub>) chang, aggressiv gazlar (CO<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>S) va boshkalardir.

Korroziya ikki xil buladi: Ximiyaviy korroziya va elektroximiyaviy korroziya.

*Ximiyaviy korroziya.* Bu korroziyani boshkacha kilib gazlar ta'siridagi korroziya xam deyiladi. Bunday korroziyada metall gazlar (O<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>S, Cl<sub>2</sub>, F<sub>2</sub>) bilan ta'sirlashib metall sirtida oksid yoki boshka birikmalarni xosil kiladi va

yomrila boshlaydi. Kupchilik xollarda metall oksidlari xosil bulib, bu oksid juda barkaror modda bulgani uchun metall sirtida yupka "oksid parda" xosil kiladi va metallni keyingi korroziyalanishdan saklaydi. M: Al metali sirti  $\text{Al}_2\text{O}_3$  bilan, Cr-sirti  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  bilan koplanadi. Ba'zi xollarda bu "oksid parda" xolida bulmaydi. Masalan, temirning sirti  $\text{FeO}$  va  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  - oksidlarni xosil kiladi, bu oksid bulaklanib ketishi tufayli temirning korroziyalanishi davom etaveradi. (15 - rasm).

Yukoridagilarga assoslanib shuni aytish mumkinki, gazlar ta'siridagi korroziya oksidlovchining kuchiga, xosil buladigan oksid pardaning xossasi va tuzilishiga, kislorod (yoki boshka gaz) ning metall katlamiga singuvchanligi - diffuziyanishiga, metall atomlarining xosil bulgan oksid katlamga diffuziyanishiga va oksidning uchuvchanligiga boglik buladi.

Bu urinda shuning aytish lozimki, metallar kotishmalari oksid pardalar yordamida korroziyadan kam yomriladi. Chunki<sup>6</sup> bunda kush oksidlari  $\text{MeO}$ ,  $\text{Me}_x\text{O}_y$  tarkibli berikmalar xosil bulib, bu oksidlari "Shpinel" tuzilishli bulgani uchun juda barkaror buladi.

Masalan: Mg - Al kotishmasi  $\text{MgO}$   $\text{Al}_2\text{O}_3$  - tarkibli "Shpinel" xosil kilgan uchun bu kotishma korroziyaga juda chidamlidir.

Lekin, xamma xollarda xam oksidlarning (yoki boshka birikmalarning) xosil bulishi galar korroziyasini tuxtatmaydi, aksincha uni tezlashtirib, metallning fizik-ximiyaviy xossalari uzgarishiga olib keladi. Bunday xolat yukori oksidlanish darajasi (Q5, Q6, Q7) namoyon kiluvchi metallarda kuzatiladi.

M: W - volfram utga chidamli, kiyin suyuklalanuvchan metall ( $T_{\text{suyuk}}$  q  $3390^{\circ}\text{C}$ ). Gazlar korroziysi tufayli kislorodlik muxitda  $\text{WO}_3$ , xloridli muxitda  $\text{WCl}_6$  birikmalarini xosil kiladi. Bu birikmarning  $t_{\text{suyuk}}(\text{WO}_3)$  q  $1930^{\circ}\text{C}$ ,  $t_{\text{suyuk}}(\text{WCl}_6)$  q  $347^{\circ}\text{C}$  bulgani va yongil uchuvchan bulgani uchun volframning korroziyalanishini tezlashtiradi va "utga chidamli" lik xususiyatini kamaytiradi.

Elektroximiyaviy korroziya - turli metallar uzaro bir-biriga tegib turganda aggressiv muxit ta'sirida potentsiallar farki yuzaga kelishi tufayli sodir buladigan korroziya.


Kupchilik xollarda bu korroziyaning asosiy "aybdori" metal sirtini koplab turgan namlik yoki suv buladi. Chunki  $\text{pH} > 7$  da suvning elektrod potentsiali  $E^0$  q -0,41 v ga teng, shu sababli suv oksidlanish potentsiali - 0,41 v dan kichik bulgan barcha metallarni oksidlaydi.

Neytral muxitda ( $\text{pH} \approx 7$ ) suv molekulalari ishkoriy, ishkoriy-er metallarini , Al, Zn, Fe, Mn, Cr va T1 ni korrozilaydi. Kislotali muxit ( $rN < 7$ ) da suv molekulasi Co, Ni, Pb, Mo, W kabi metallarni "emiradi". Agar suvda kislorod gazi erigan bulsa ( $\text{O}_2$  Q  $\text{H}_2$  uta aggressiv aralashma) korroziyalanish juda tez va keng mikyosda boradi, chunki bu aralashmaning oksidolanish potentsiali  $E$  q Q 0,815 v ga teng.


Nikellangan temir buyum darz ketganda ruy beradigan korroziyalanish jarayoning kurib chikaylik.

Nikellangan temir buyum darz ketganda xavodagi nam (suv molekulalari),  $\text{CO}_2$  va boshka gazlarning temir sirtiga utirishi tufayli temir sekin - asta emrila boshlaydi. Bu shunday ruy beradi, metall sirtidagi  $\text{CO}_2$  nam bilan ta'sirlashib oz bulsada karbonat kislotasini xosil kiladi. ( $\text{N}_2\text{O}$  Q  $\text{SO}_2 \longrightarrow \text{N}_2\text{SO}_3 \longleftrightarrow \text{H}^Q$  Q  $\text{HCO}_3^-$ ). Temir va nikel bunda guyoki biror elektrolit eritmasiga tushirilgandek bulib, musbat va manfiy zaryadlangan elektrodlarga aylanib koladi va ularning standart oksidlanish potentsiallari ( $E^0_{\text{Re}^0/\text{Re}^{+2}}$  q - 0,44 v va  $E_{\text{Ni}^0/\text{Ni}^{+2}}$  q -0,25 v) turli xil bulgani uchun kichik galvanik element xosil kiladilar (15-rasm).

Bunda temirning oksidlanish potentsiali kichik bugani uchun uz elektronlarini nikel sirtida koldiradi, uzi esa  $\text{Fe}^{Q2}$  ionlari xolida eritmaga uta boshlaydi:  $\text{Fe}^0 - 2e^- \longrightarrow \text{Fe}^{Q2}$  - anod, nikel esa katod vazifasini bajaradi. Ma'lumki temir sirtidagi nam va  $\text{CO}_2$  kuchsiz kislota xosil kilgani uchun oz bulsa  $\text{N}^Q$  - ionlarini xosil kiladi. Bu vodorod ioni manfiy zaryadli nikel –



Расм Кургошинли аккумулятор




Nikel bilan koplangan temir buyumning korroziyalanishi

Rasm 15

katodga tortilib, undagi temir atomlari koldirilgan elektronlarni kabul kilib kaytariladi:  $2H^Q Q 2e^- \longrightarrow H_2^0$

Bu jarayonda ishtirok etaetgan nikel fakat elektronlarni utkazuvchilik vazifasini bajaradi, lekin uzi uzgarishsiz koladi. Emirilish natijasida xosil bulgan  $Fe^{Q2}$  - ionlari, suvning dissotsiyalanishida xosil bulgan  $ON^-$  - ionlari, suv va xavo - kislorodi ta'sirida kuyidagi moddalarni xosil kiladi:

$Fe^{Q2} Q 2OH^- \longrightarrow Fe(OH)_2$  va  $4Fe(OH)_2 Q O_2 Q 2H_2O \longrightarrow 4Fe(OH)_3$   
 $Fe(OH)_3$  xavoda parchalanib kizil kungir rangli  $Fe_2O_3$  ni xosil kiladi:



Yukoridagilardan kurinib turibdiki, xavoda suv bugi va agressiv gazlar kanchalik bulsa, korroziyalanish tez boradi. Bu jarayon temirning xammasi emirilib bulmaguncha davom etaveradi. Bu misolda temir anod vazifasini bajargani uchun bunday korroziyalanishni anod buyicha korroziyalanish deyiladi. Elektroximiyaviy korroziya yukoridagi xolatlardan tashkari yana:

- metall bilan uning biror elektr utkazuvchanlik xossasiga ega bulgan birikmasi (tuzlari) uzaro "kontakt" da bulganda xam ruy beradi. Chunki  $E^0$  metall odatda  $E^0$  birikmadan kichik buladi. Bunda metallning birikmasi katod vazifasini bajarib, uing sirtida oksidlovchi (korroziyalovchi modda) kaytariladi. Bunday korroziyada katod vazifasini metallning oksidlanish reaktsiyasi maxsulotlari (oksiidi, gidroksid tuzi) bajarishi va tezlashtirishi xam mumkin. Metallning ximoyalanmagan kismi (sirtti) anod vazifasini utaydi. Bunday korroziya "parda"li (plenochnaya) korroziya deyiladi (V.A.Kistyakovskiy nazariyasi).

- metall sirtining turli kismlari oksidlovchi (kislorod) ning kontsentratsiyasi turlicha bulgan elektrolit eritmasi bilan ta'sirlashib turganda xam elektroximiyaviy korroziya ruy beradi.

- agar metall buyumning turli kismidagi ichki kuchlanish turlicha bulsada, anikrogi metallning bir kismi "sikilgan", boshka kismi "kengaytirilgan" da xam elektroximiyaviy korroziya ruy beradi. Chunki metalning "sikilgan" kismida E - ning kiymati yukori, "kengaytirilgan" kismida E - kiymati shu metallning E kiymatidan xam kichik buladi. Bu argessiv muxit ta'sirida galvanik element xosil

bulishiga olib keladi va "sikilgan" kism - katod, "kengaytirilgan" kismi - anod rolini uynaydi va shu kismidan metall korroziyalana boshlaydi.

Yukoridagi baen etilgan ma'lumotlardan kurinib turibdiki, doimiy foydalanishda bulgan xar kanday metalldan yasalgan buyum va detallar doimo u yoki bu korroziyalanishga uchraydi. Korroziya natijasida uskuna, jixozlar, buyum va detallar emrilib yaroksiz xolgacha kelib koladi. Xalk xujaligi korroziyadan juda katta zarar kuradi. Shu sababli ximiya fanining eng asosiy muammo va vazifalaridan biri korroziyaga karshi kurashish muammolarini echishdan iborat.

### **Korroziyadan ximoyalash**

Korroziyadan ximoyalashning bir nacha usulari mavjud. Bu usularni kullash ximoyalananadigan metalning tabiati, ishlatilish maksada va urniga, sharoitiga boglik. Shu usullarning ayrimlari bilan tanishib chikaylik.

*Metallar sirtini legirlash.* Bu usuli ximoyalananadigan metall sirtiga yukori vakuum ostida yoki plazmali purkagich erdamida va termokayta ishlash bilan yupka korroziyaga chidamli metall katlamni etkizishdir. Agar ximoya koplamni Al-metalidan bulsa, "allitir" lash; Sr - bulsa, xromlash, Si - bulsa, silitsirlash deb aytildi. Umuman legirlash uchun "passiv" metallar - Su, Au, Ag yoki korroziyaga chidamli oksid parda xosil kiluvchi metallar Al, Zn, Sn, Cr, Pb, Ni, V ishlatiladi.

*Plakirlash usuli* - bu metall prokatlari olish jarayoni bilan birgalikda ularning sirtiga ximoyalovchi metall ximoya katlamini xosil kilishdir. Bu usul bilan pulat, chuyan sirti Al - bilan, Zn - bilan yoki Sn - bilan koplanadi. Bu usulning ximoyalanuvchi metallni ximoyalovchi metall suyuklanmasiga tushirib sirtini koplash - "*OKUN*" lash turi xam mavjud. Agar bu maksadda ximoyalovchi metall suyuklanmasi ishlatilsa - "rux" lash (otsinkovanie); agar kalay metali - Sn suyuklanmasidan foydalanilsa - "kalay" lash (lujenie) deyiladi.

*Oksidlash usuli* - ximoyalanuvchi metall sirtini ximiyaviy yoki elektroximiyaviy usul bilan yupka lekin juda zich parda bilan koplash usulidir.

*Ximiyaviy* usulda sirti tozalangan metall kuchli oksidlovchi ( $H_2SO_4$ ,  $HNO_3$ ) eritmasiga tushirilib sirtidaoksid parda xosil kilinadi. M: Gummirlangan pulat

idishlar kontsentratsiyasi 75% dan yukori bulgan  $H_2SO_4$  ertimasini pulat sirtiga surkash bilan xosil kilinadi. Ba'zi xollarda pulat buyum  $NaNO_3$  (50 gG'l) va  $NaNO_3$  200 gG'l) va NaOH (800 gG'l) moddalar eritmalari aralashmasiga tushirilib  $140^0S$  da 90 minut davomida ushlab turiladi (voronenie) va oksid parda xosil kilinadi. Elektroximiyaviy usulda ximoyalanadigan metall oksidlovchi eritmasiga tushiriladi va metallga tokning musbat kutbi ulanib kuyiladi. Bunday "oksid parda" langan metallni ba'zan anodlangan metallar deyiladi.

*Fosfatlash* - metallar sirtini ximiyaviy ta'sirga chidamli va buyashga kulay bulsin uchun ximoyalanadigan metallni fosfat kislotaning nordon tuzi eritmalari bilan ishslash usulidir. Bu kupincha temirdan yasalgan jixoz buyumlarni ximoyalashda kullaniladi. M: Pulat sirti  $Fe(H_2PO_4)$  yoki  $Mn(H_2PO_4)_2$  tuzlari eritmasi bilan kayta ishlanib govak, lekin mustaxkam parda ( $FePO_4$ ) bilan kopланади. Bunday pulat sirti turli buek (kraskalarni) juda yaxshi saklab koladi.

*Elektroximiyaviy usullar:* protektorli ximoya va tashki kuchlanish usullariga bulinadi.

*Protektorli* ximoya usulida ximoyalanuvchi metallning bir kismiga oksidlanish potentsiali  $E^0$  dan kichik oksidlanish potentsiali metall bulakchasi kovsharlanib kuyiladi. Bunda kupincha aktiv metallardan foydalilaniladi. Oksidlanish potentsiali kichik metall ximoyalanuvchimetallga nisbatan aktiv bulgani sababli tez oksidlana boshlaydi va xosil bulgan galvanik elementda anod rolini bajaradi, natijada asosiy metall korroziyaga uchramaydi.

*Tashki kuchlanish* usulida ximoyalanuvchi metalga tashki elektr manbaidan kuchlanish beriladi, ya'ni ximoyalanuvchi metall elektrning manfiy kutbiga ulanib "katod" ga aylantiriladi. Natijada oksidlovchi moddalar metallga ta'sir etib elektr manbadan keladigan elektronlar xisobiga kaytariladi va asosiy metall emirilishdan saklanadi. Bu usuli temir yul reqlarida kup kullaniladi.

Yukoridagilardan tashkari metallarni korroziyadan saklash uchun ular sirtiga turli xil moy moddalar, polimer koplamalar, mum koplamasi, turli bueklar surkash usullari xam kullaniladi.

## **Elektroliz**

*Elektroliz* deb, elektrolitning suyuklanmasi yoki eritmasidan elektr toki utganda boradigan oksidlanish - kaytarilish reaktsiyalariga aytiladi.

Ma'lumki elektroliz *suyuklanmada* va *eritmada* borishi mumkin. Suyuklanmada boradigan elektroliz natijasida anodda shu modda tarkibiga kirgan anion oksidlanadi, katodda esa shu modda tarkibidagi kation kaytariladi. M: NaCl tuzi suyuklanmasi elektrolizida:  $\text{NaCl} \longleftrightarrow \text{Na}^Q \text{ Q Cl}^-$  da  $\text{Na}^Q$  ioni katodda kaytariladi:  $\text{Na}^Q \text{ Q e}^- \longrightarrow \text{Na}^0$ ;  $\text{Cl}^-$  anioni anodda oksidlanadi:  $2\text{Cl}^- - \text{e}^- \longrightarrow \text{Cl}_2$ . Umumiyl xolda:  $2\text{NaCl} \longrightarrow 2\text{Na} \text{ Q Cl}_2$  reaktsiya boradi.

*Eritmaning elektrolizi.* Eritma elektrolizida tuz molekulalari bilan birgalikda suv (erituvchi) molekulalari ishtirok etgani uchun ancha murakkabdir. Eritmada boradigan elektroliz sxemasini tuzaetganda kuyidagi koidalarni bilish zarur:

### Katod jarayonlari uchun:

1. Agar eritmada oksidlanish potentsiali vodorodning oksidlanish potentsialidan kichik bulgan kationlar (aktivlik katorida  $\text{Li}^Q$  dan  $\text{Al}^{Q3}$  gacha) bulsa, katodda suv molekulalari kaytarilib, bu metall ionlari eritmada uzgarmasdan koladi.

2. Agar eritmada standart oksidlanish potentsiali vodorodnikidan kichik, lekin Al nikidan katta bulgan kationlar ( $\text{Al}^{Q3}$  dan  $\text{Pb}^{Q2}$  gacha) bulsa, u xolda katodda bir vaktning uzida xam vodorod ionlari, xam shu metall kationi kaytariladi.

3. Agar eritmada standart oksidlanish potentsiali vodorodnikidan yukori bulgan kation bulsa, katodda avval shu kation kaytariladi (aktivlik katorida bu kationlar  $\text{N}^Q$  - dan keyin turibdi).

### Anod jarayonlar uchun:

1. Agar eritmada kislrodsiz kislotalarning anionlari;  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{J}^-$ ,  $\text{F}^-$  lar bilan birga  $\text{H}_2\text{O}$  - ionlari mavjud bulsa, anodda avval kislrodsiz kislota anionlari oksidlanadi.


2. Agar eritmada kislrodli kislota anionlari:  $\text{SO}_4^{-2}$ ,  $\text{CO}_3^{-2}$ ,  $\text{PO}_4^{-3}$ ,  $\text{NO}_3^-$  lar  $\text{H}_2\text{O}$  bilan birgalikda kelsa, u xolda anodda  $\text{H}_2\text{O}$  molekulalari oksidlanadi, chunki

bu anionlarning oksidlanish potentsiallari suv molekulasining oksidlanish potentsialidan katta.

Endi yukoridagi koidalarga amal kilgan xolda ba'zi – bir elektroliz jarayonlarini kurib chikaylik.

M: Osh tuzi eritmasining elektroliz sxemasini tuzing. Anod va katodda boradigan oksidlanish - kaytarilish reaktsiyalari tengmalasi tuzning.

Echish: Masalaning shartidan kurinib turibdiki elektroliz eritmada borayapti. Osh tuzi ( $\text{NaCl}$ ) malekulalari eritmada dissotsiatsiyalangan xolda buladi:  $\text{NaCl} \longleftrightarrow \text{Na}^Q + \text{Cl}^-$ . Bu ionlardan  $\text{Na}^Q$  manfiy zaryadli elektrod - katodga tortiladi,  $\text{Cl}^-$  esa musbat zaryadli elektrod - anodga tortiladi. Bulardan tashkari eritmada suv molekulalari xam bulgani uchun ular xam elektroliz jarayonida katnashadilar, anikrogi suvning dissotsiatsiyalishi natijasida xosil buladigan  $\text{N}^Q$  va  $\text{ON}^-$  ionlari mos ravishda katod va anodga tortiladi. Buni kuyidagi sxemada kurish mumkin:




Sxemadan kurinyaptiki katodda  $\text{Na}^Q$  va  $\text{N}^Q$  ionlari kaytarilishi kerak. Bulardan  $\text{Na}^Q$  ionning oksidlanish potentsiali ( $E^0$  q -2,71 v) vodorod ionning shartli oksidlanish potentsiali ( $E^0$  q O v) dan kichik:

$$E_{\text{Na}/\text{Na}^+} < E_{\text{H}/\text{H}^+}$$


Shuning uchun katodda vodorod ionlari kaytariladi, eritmada  $\text{Na}^Q$  - ionlari koladi:  $2\text{N}^Q + 2\text{e}^- \longrightarrow \text{N}_2^0$  (tugrirogi:  $2\text{N}_2\text{O} + 2\text{e}^- \longrightarrow \text{N}_2^0 + 2\text{ON}^-$  suv molekulalari kaytariladi).

Anodda xlор va  $\text{N}_2\text{O}$  molekulalari oksidlanishi kerak. Lekin xlор ionlari kislorodsiz kislota koldigi bulganligi uchun anodda  $\text{Cl}^-$  ionlarining oksidlanishi ruy beradi:




Demak  $\text{NaCl}$  tuzining eritmasi elektroliz kilinganda katodda  $\text{N}_2\text{O}$  molekulalari kaytariladi, anodda xlор ionlari oksidlanadi. Elektroliz maxsuloti

sifatida vodorod va xlor gazlari xosil buladi. Eritmada esa  $\text{Na}^{\text{Q}}$  va  $\text{OH}^-$  ionlari koladi, eritma kuchli ishkoriy muxitga ega buladi:




Endi kuyidagi masalani kurib chikaylik. M:  $\text{CaCl}_2$  tuzi eritmasining elektroliz sxemasini tuzing.


Echish: Elektroliz kilinayotgan tuz tarkibiga kirgan kation yukorida kurib chikilgan masaladagi tuz tarkibidagi ionlardan ancha kiladi. Chunki kation ( $\text{Si}^{\text{Q}2}$ ) oksidlanish potentsiali katorida vodoroddan keyin turadi.  $\text{Cl}^-$  anioni kislородли kislota koldigi. Shuning uchun bu tuz eritmasining elektrolizi kuyidagicha boradi.



Bu eritmaga elektrodlar tushirilib ularga tok ulansa, katodga mis (II) ionlari anodga esa xlor ionlari tortiladi. Eritmada suv molekulalari xam bulgani uchun elektroliz jarayonida ular xam ishtirok etadilar. Buni sxematik kurinishda yozsak; (16 rasm)



Yukoridagi koidalarga kura elektrodlarda boradigan oksidlanish kaytarilish reaksiya tenglamalarini ezamiz. Katodda:  $\text{Si}^{\text{Q}2} + 2\text{e}^- \rightarrow \text{Si}^0$  (eritmada  $\text{H}^{\text{Q}}$ -ionlari koladi. Chunki,  $E^0_{2\text{H}^+/\text{H}} < E^0_{\text{Cu}^{+2}/\text{Cu}^0}$  Anodda:  $E^0_{\text{Cl}^-/\text{Cl}^0} <$



## 16-Расм Мис хлорид эритмасининг электролиз схемаси

$E^0_{\text{HQ}/\text{H}_2}$  bulgani uchun xlor ionlari oksidlanadi, ya'ni;  $2\text{S}\text{I}^- - 2\text{e}^- \longrightarrow \text{Cl}_2^0$ . Bu elektroliz paytida boradigan oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarini birgalikda yozib, elektrolizning umumiyligi tenglamasini tuzamiz:



Demak,  $\text{SuCl}_2$  tuzi eritmasi elektroliz kilinsa, anodda xlor ionlari oksidlanib xlor gazi chikar ekan. Katodda  $\text{Su}^{Q2}$  ionlari kaytarilib mis metali xolida ajralar ekan. Eritmada suv molekulalari kolayeradi.


Ba'zi xollarda elektrolizni elektroliz kilinaetgan tuz tarkibiga kirgan metallardan yasalgan elektrodlar erdamida xam utkaziladi. Bunday elektrolizni "eruvchan anod" elektrolizi deyiladi. Bunga kuyidagi elektroliz misol buladi.

Masala:  $\text{NiSO}_4$  eritmasini nikel elektrodlari erdamida elektroliz kilindi. Shu elektrolizning sxemasini tuzing.

Echish: eritmada  $\text{Ni}^{Q2}$ ,  $\text{SO}_4^{-2}$  ionlari va suv molekulalari bor.


Elektrodlarga kuchlanish berilganda nikeldan yasalgan anod eriy boshlaydi, yan'ni nikel atomlari oksidlanib eritmaga nikel ionlari xolida uta boshlaydilar:  $\text{Ni}^0 - 2e^- \longrightarrow \text{Ni}^{Q2}$

Eritmadagi nikel ionlari katodga tortilib kaytarila boshlaydi:



Bunda anod erib kancha ionlarini xosil kilsa, shuncha  $\text{Ni}^{Q2}$  ioni katodda kaytarilib nikel metalini xosil kiladi. Eritilgan tuz mikdori va ionlari elektroliz paytida uzgarishsiz koladi.

Aytilganlarni sxema kurinishida yozsak:



Elektrolizning umumiy tenglamasi:



Ma'lumki, elektroliz paytida elektrodlarda ajralib chikadigan moddalar mikdorini xisoblash mumkin. Elektroliz paytida ajralib chikadigan moddalar mikdorini Faradey konunlari asosida olingan formulalar erdamida xisoblanadi.

Faradeyning birinchi konuniga binoan: elektroliz natijasida elektrodlarda ajralib chikadigan moddalar mikdori eritmagan utgan elektr mikdori ( $J*t$ ) ga tugri proportionaldir.

Faradeyning ikkinchi konuni kuyidagicha ta'riflanadi: elektrodlarda ajralib chikadigan moddalar mikdori shu modda (ion) larning ximiyaviy ekvivalentiga tugri proportionaldir. Modda mikdoriga tegishli bulgani uchun ikkala konuni umumlashtirib elektrodlarda ajralib chikadigan modda mikdorini xisoblash mumkin:

$$m q I*t*EG'F$$

Bu erda: m - ajralib chikaetgan modda macsasi, g; kg.

I - tok kuchi, A, t - vakt, sekund

F - Faradey soni q 96500 Kl.

E - ximiyaviy ekvivalent

Bu formulani gazsimon moddalar uchun xam yozish mumkin;

$$VqI^*t V_e G'F$$



Bu erda:  $V$  - ajralib chikkan gazning xajmi, ml;  $V_e$  - ajralib chikkan gazning ekvivalent xajmi. Formulalarda keltirilgan  $I^*t$  kupaytma eritmadan utaetgan elektr mikdorini ifodalaydi va  $Q$  xarfi bilan belgilanadi. Agar 1 Kl elektr mikdori elektrolizerdan utsa elektrodlarda  $E$  q EG'F mikdor modda ajralib chikadi. Bunda  $E$  - moddaning elektroximiyaviy ekvivalenti deyiladi. Uning ma'nosi, eritmadan 1 Kl elektr mikdori utganda ajralib chikadigan moddalar massasidir.

Masala: Rux xlorid eritmasidan 1 soat davomida 0,6 amper tok kuchi utganda elektrodlarda ajralib chikadigan moddalar mikdorini xisoblang.


Echish: Avval elektroliz sxemasini tuzamiz;



Bu tuz tarkibidagi  $\text{Zn}^{Q2}$  kation oksidlanish potentsiali katorida vodorod bilan Al urtasida joylashgan  $E$  q -0,76 v. Shu sababli katodda bir vaktda rux ionlari va vodorod ionlari (anikrogi suv molekulalari) kaytiraladi. Anodda esa  $\text{Cl}^-$  ionlari oksidlanadi:



Elektrolizning umumiy tenglamasi:



Demak, katodda rux metali va vodorod, anodda esa xlor gazi ajralib chikadi. Rux metalining massasini vodorod va xlor gaz xolida chikkani uchun ularning xajmini xisoblaymiz:

$$m_{\text{Zn}} = \frac{\varrho \cdot J \cdot t}{F} = \frac{32.5 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.727 \text{ g}$$

$$V_{\text{H}_2} = \frac{V \cdot J \cdot t}{F} = \frac{11.2 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.250_1$$

$$V_{\text{Cl}_2} = \frac{V \cdot J \cdot t}{F} = \frac{11.2 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.250$$

Ba'zi xollarda elektroliz natijasida ajralib chikadigan modda mikdori nazariy xisoblangandan kam buladi. Buni mikdoriy tomondan xarakterlash uchun

elektrolizning tok buyicha unumi degan tushuncha kiritilgan. Tok buyicha unum  $\eta$ - xarfi bilan belgilanib kuyidagicha xisoblanadi:

$$\eta = \frac{m_{\text{мајкриба}}}{m_{\text{назарий}}} * 100\%$$

Bunda:  $m_{\text{таjриba}}$  - tajribada ajralib chikkan modda massasi.

$m_{\text{наzariy}}$  - shu moddaning nazariy xisoblanganda ajralib chikishi kerak bulgan massasi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Metall elektrodlar nima? Ularning oksidlanish potentsiali deganda nimani tushunasiz?
2. Oksidlanish (kaytarilish) potentsiali kanday yuzaga keladi?
3. Nernst formulasini yozib, uni izoxlang.
4. Potentsial xosil kiluvchi ionning kontsentratsiyasi "1 molG'l" bulsa, bu elektrod potentsiali kanday nomlanadi?
5. Oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarining E.Yu.K i kanday xisoblanadi va reaktsiya tugri yunalishda borishi uchun u kanday shartni kanoatlantirishi kerak?
6. Oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalarida bajarilgan ish, Gibbs energiyasi kanday bulishi kerak?
7. Standart oksidlanish potentsiali nima? Uning amaliy axamiyati nimadan iborat?
8. Vodorod elektrodi kanday ishlaydi, u nima maksadda kullaniladi?
9. Galvanik element nima? U kanday ishlaydi?
10. Galvanik elementning E.Yu.K kiymati kanday xisoblanadi?
11. Korroziya va uning asosiy turlarining moxiyatini tushuntiring.
12. Korroziyadan ximoyalanishning asosiy turlarini izoxlang.
13. Ximiyaviy korroziya kanday faktorlarga boglik buladi?
14. Elektroximiyaviy korroziya kanday faktorlarga boglik buladi?

15. Elektrolizning moxiyati nimadan iborat?
16. Eritmada boradigan elektroliz uchun kanday (anod va katod) koidalar bor?
17. Eruvchan anod elektrolizining moxiyatini tushuntiring.
18. CuSO<sub>4</sub> eritmasini kumir va mis elektrodlari ishtirokidagi elektroliz sxemalarini tuzing.
19. Elektroximiayiy ekvivalentning ma'nosini tushuntiring.
20. Elektroliz natijasida ajralib chikuvchi moddalar massasi (xajmi) ni xisoblash formulalarini yozib, izoxlang.
21. Tok buyicha unum nima? Uning ma'nosini tushuntiring.

### **Tayanch iboralari:**

Ushbu mavzuda urganiladigan asosiy tayanch iboralar: kush elektr kavat, oksidlanish potentsiali, elektrod, oksidlanish-kaytarilish reaktsiyalari elektr yurituvchi kuchi, (E.Yu.K.), reaktsiyalarning yunalishi, Nernst tenglamasi, standart oksidlanish potentsiali, normal vodorod elektrodi, metallarning kuchlanishlar katori, galvanik elementlar, korroziya, ximiyaviy va elektroximiayiy korroziya, katod va anod buyicha korroziya, "pardali" korroziya, korroziyadan ximoyalash, legirlash (xromlash, silitirlash), plakirlash (okunlash, ruxlash, kalaylash), oksidlash, fosfatlash, protektor ximoya, katod ximoyalash usullari, elektroliz, suyuklanma, eritmaning elektrolizi, Faradey konunlari, elektroximiayiy ekvivalent, eruvchan anod elektrolizi, tok buyicha unum.

## **XI MAVZU**

### **KOMPLEKS BIRIKMALAR VA UALAR XOSIL BULISHINI TUSHUNTIRUVChI ASOSIY NAZARIYALAR**

#### **Reja:**

1. Kompleks birikmalar xakida umumiyl tushunchalar.
2. Kompleks birikmalarning nomenklaturasi.
3. Kompleks birikmalarning turlari.
4. Valent boglanishlar, kristall maydon nazariyalari.
5. Kompleks birikmalarning barkarorligi.
6. Ligandlarning spektroximiyaviy katori xakida tushuncha.

#### **Adabiyotlar:**

1. X. R. Raximov "Anorganik ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1981., 148-169 betlar.
2. N. S. Axmetov "Neorganicheskaya ximiya", Moskva "Vo'sshaya shkola", 1969 g., 103-120 betlar.
4. T.M. Mirkomilov, X.X. Muxitdinov "Umumiy ximiya", Toshkent "Ukituvchi", 1987 y., 114-117 betlar.
5. K. Axmerov va boshkalar."Umumiy va anorganik ximiya" Toshkent "Ukituvchi", 1988 y., 174-185 betlar.
6. X.R. Raximov va boshkalar."Anorganik ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1980 y., 237-243 betlar.
7. N.X. Maksudov "Umumiy ximiyadan praktikum", Toshkent "Ukituvchi", 1979 y., 176-178 betlar.
8. Z.K. Kodirov, Sh.K. Norov, A.G. Muftaxov. "Anorganik ximiyadan amaliy mashgulotlar", Toshkent "Ukituvchi", 1996 y., 100-105 betlar.

Ma'lumki ximiyaviy birikmalar xosil bulishida barcha atomlar uz valentliklariga muvofik ma'lum sondagi ximiyaviy boglarni xosil kiladilar.

Lekin shunday birikmalar borki ularda atomlar valentlik tushunchasiga "buysunmay" uz valent imkoniyatlaridan ortik ximiyaviy boglanishlar xosil kiladilar.

Masalan:  $\text{PtCl}_2 \cdot 2\text{KCl}$ ;  $\text{PtCl}_4 \cdot 2\text{NH}_3$ ;  $\text{CrCl}_3 \cdot 6\text{NH}_3$ ;  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ;  $\text{CoCl}_3 \cdot 4\text{NH}_3$  va xokazo. Bunday "odatdan tashkari" moddalar uziga xos ximiyaviy, fizikaviy xossalarga ega bulishi bilan ranglari bilan xam fark kiladilar. Bir element Co - kobalt Cl va  $\text{NH}_3$  bilan kuyidagi turli rangdagi birikmalarni xosil kiladi:

$\text{CoCl}_3 \cdot 6\text{NH}_3$  sarik;  $\text{CoCl}_3 \cdot 5\text{NH}_3$  tuk kizil (purpur);  $\text{CoCl}_3 \cdot 4\text{NH}_3$  yashil;  $\text{CoCl}_3 \cdot 4\text{NH}_3$  binafsha (fioletovo'y) rangli.

Uziga xos bunday moddalarni *kompleks* birikmalar deyiladi.


*Kompleks birikma* deb, kattik xolatda va eritmalarda mustakil mavjud bula oladigan va tarkibida kompleks ion saklagan murakkab birikmalarga aytiladi.

